

ISSN: 2181-4120

Scientific Journal

GOLDEN BRAIN

Social Sciences & Humanities



Volume 2, Issue 24



webgoldenbrain.com

December
2024

ISSN 2181-4120
VOLUME 2, ISSUE 24
DECEMBER 2024



<http://webgoldenbrain.com/>

**“GOLDEN BRAIN” SCIENTIFIC JOURNAL
VOLUME 2, ISSUE 24, DECEMBER, 2024**

EDITORIAL BOARD

G. Kholmurodova

Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

A. Madaliev

Professor, Doctor of Economics, Tashkent State Agrarian University

G. Sotiboldieva

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

U. Rashidova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Philological Sciences, Samarkand State University

D. Darmonov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

X. Abduxakimova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

U. Ruzmetov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Chemical Sciences, National University of Uzbekistan

M. Yusupova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

M. Kambarov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Namangan State University

S. Sadaddinova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Physics and Mathematics Sciences, Tashkent University of Information Technologies

M. Fayzullaev

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) Geographical Sciences, Karshi State University

Z. Muminova

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine

B. Kuldashov

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine

Kh. Askarov

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Fergana Polytechnic Institute

S. Nazarova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Bukhara State University

O. Rahmonov

Doctor of Philosophy (Phd) in Technical Sciences, Fergana Polytechnic Institute

G. Tangirova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

Z. Koryogdiev

Doctor of Philosophy (Phd) in Historical Sciences, Bukhara State University

S. Ubaydullaev

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnology

R. Yuldasheva

Associate Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

M. Yuldashova

Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Namangan State University

Editorial Secretary: J. Eshonkulov

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14636153>

НАВОИЙ ТИЛИ ВА НАЗАРИЙ-СИЁСИЙ ЖАРАЁНЛАРГА ҚАРАШЛАРИ

Эшбеков Б.Н

Самарқанд тиббиёт Университети бўлим бошлиғи

Аннотация: Мақолада сиёсат сўзининг шарқ халқ тилларида қандай келиб чиққанлиги унинг бевосита луғавий маъноси, шунингдек Алишер Навоий бобомизнинг қарашлари ва ўша даврдаги одамларнинг сиёсий жараёнларга қарашлари акс эттирилган.

Калит сўзлар: сиёсий жараёнлар, сиёсат, давлат, жамият, сиёсатшунослик.

Сиёсат сўзининг Шарқ халқлари тилларида хусусан, мусулмон шарқи халқлари тилларида келиб чиқиши хусусида фикр билдириб ўтиш лозим. Ҳозирги замон ўзбек тилида ва бошқа мусулмон шарқи халқлари тилларидаги “сиёсат” сўзи - араб тилидаги “сияса” “сиясах”, “сиясат”, “сиёсат” сўздан олинган бўлиб, унинг бевосита луғавий маъноси қуйидагича изоҳланган:

1) Сиёсат сўзи – жазога лойиқ кишиларнинг жазосини беришда шиддат кўрсатиш, дўк, пўписа қилиш;

2) Ҳукмронлик кўрсатиш; ҳукмдорнинг ўз қўли остидагиларни жазолаш ва кўрқитиш йўллари билан бўйсундириб, интизомда сақлаши; Масалан: Сиёсат қилғулуқ – даҳшат қилинадиган, кўрқитиладиган, жазога тортиладиган; сиёсат/гоҳ – (араб/форс) - жазо майдони, жазога тортиладиган жой¹.

¹ П.Шамсиев., С.Иброҳимов., Навоий асарлари луғати Тошкент Ғ.: Фулом номидаги адабиёт ва санъат

Бу изоҳлар ва келтирилган мисоллар, она тилимиз – ўзбек мумтоз тили ва адабиёти асосчиларидан бири Амир Алишер Низомиддин Навоий асарлари мисолида ва унинг асарлари изоҳли луғатларида келтирилганлигини айтиб ўтишимиз лозим.

Қадимги дунё ва ўрта асрлар шароитида сиёсатда ёки бошқача айтганда, ижтимоий интизомни сақлашда ва жамиятни бошқаришни айнан кўрқитиш ва дўқпўписа қилиш услуби кенг қўлланилгани, ҳатто ҳозирги замон сиёсий бошқаруви услубини ҳам фавқулодда шакли мажбурлаш услуби эканлигини ҳисобга олганда, сиёсат сўзининг шарқона келиб чиқиши варианты мантиққа яқинроқ эканлиги кўринади. Сиёсий ҳокимият бошқа ҳокимиятлардан фарқи ва хусусияти шундаки, у қабул қилган қарор ва қонунлар ҳамма учун умумийлиги, мажбурийлиги туфайли, ўз фаолиятида ҳамма учун мажбур бўлган қонунлар билан таъсир ўтказди. Бу ҳол унинг ҳамма вақт мажбурловчи жиҳатини англатади.

Алишер Навоий тили ва назарий қарашларида “сиёсат” сўзи талқинига келганимизда ҳам, улуғ мутафаккир асарларида сиёсатни қатъият, дўқпўписа, ўз қудратини намойиш этиш, ўз иродасини ўтказиш услуби сифатидаги мазмунини англаш мумкин. Лекин Навоийда бундай “сиёсат” адолатсизликка, ҳақсизликка нисбатан қўлланиладиган чора сифатида ифодаланган. Масалан: “Маҳбуб ул-қулуб”даги “одил салотин зикрида” фаслида “... заллама ва авонлар анинг тиғи сиёсатидин фарсуда” – яъни- одил подшоҳнинг тиғи (қиличи) даҳшатидан золим ва бебошлар ҳар томонга қочиб тўзиб кетадилар. Яна шу ерда “... сиёсатидин мусофир кўнгли қароқчи ваҳмидин мутмаин (тинч, хотиржам)”¹

“Фарҳод ва Ширинда”

Бировким топса шаҳлиғдин риёсат,

нашриёти 1972.- Б 556-557.

¹ Навоий А. Маҳбуб ул-қулуб МАТ 20 томлик Т.: “ФАН” 1998. 14 жилд Б- 12. яна қаранг С.Олим Навоий ёшларга Т.: 2008.- Б- 58-59.

Тузуқ бўлмас иши қилмай сиёсат¹.

Ёки:

Шаҳ ар тиғи сиёсат қилмаса тез,
Чекилгай халқ аро юз тиғи хунрез².

Яна шу ерда:

Сиёсатни биров чун қилди бунёд,
Бўлур тадриж бирла табъи муътод³, - дейди

“Садди Искандарий” да:

Адолат аро фасли наврўздек,
Сиёсатда барқи жаҳонсўздек⁴.

Яъни сиёсатчи, подшоҳ адолатда наврўз ҳавосидек ҳаётбахш, сиёсатда яшин сингари жаҳонни куйдиргудек, - дейди. Яна:

Адолат тариқин фош айлади,
Сиёсат анга дурбош айлади⁵.

Алишер Навоий қарашларида сиёсатга ўзига хос ёндашувлар мавжуд бўлиб, турли даврларда кечган сиёсий ҳодисалар турли хил талқин этилган. Навоий асарларида ҳам ўрта асрлар тафаккурига хос ҳар бир воқеликни, кечаётган жараёнлар, тизим ва тартиботни илоҳий куч билан боғлаб тушуниш, яратгувчини унинг асосий сабаби, манбаи деб ҳисоблаш анъанаси сезилиб туради. Бундай қараш Навоийнинг ижтимоий-сиёсий қарашлари акс этган ҳеч бир асарини четлаб ўтмаган. Бугунги сиёсий фанлар тизимида бу теократик қарашлар деб аталади⁶.

Яна бир изоҳга кўра сиёсат сўзи арабча **сиясах** – яъни, ёввойи, асов

¹ Навоий.А. Фарход ва Ширин МАТ 20 томлик Т.: “ФАН” 1991.- 8 жил Б-108.

² Шу манба Б-109

³ Навоий.А. Фарход ва Ширин МАТ 20 томлик Т.: “ФАН” 1991.- 8 жил Б-108.

⁴Навоий А. Садди Искандарий МАТ 20 томлик Т.: “ФАН” 1993.- 11 жилд Б 107.

⁵ Шу манба Б-109

⁶ Норов Т. Алишер Навоий ижтимоий қарашларининг фалсафий таҳлили. Монография. – Т.: 2016. –Б. 40-50.

отларни қўлга ўргатиш, ювош қилиб тарбиялаш амалини, шу турдаги иш билан машғул бўлган киши, кишиларни англаган сўздан олинганлиги айтилади¹. Бу ерда мажозий маънода, жамиятда турфа хулқ-атворли кишиларни ҳаракати асов отга ўхшатиш ва уни жиловлаш санъатини сиясаҳ – яъни асов отни жиловлаш киши, кишилар назарда тутилганини англашимиз мумкин.

Сиёсий маданият ва сиёсий онг, ҳар бир давр ва ижтимоий муносабатлар муҳитига бевосита боғлиқ бўлади. Ўзбек халқи сиёсий маданияти ҳам ҳамонлар оша унинг ижтимоий-маиший, сиёсий-ҳуқуқий, бадий-фалсафий меросида мужассам дейиш мумкин. Тахминан XVIII-XIX асрларда яратилган бир халқ қўшиғида шундай ҳасратли ғояни уқиш мумкин:

Бир одил подишоҳ бўлса,
Ҳар ким севгонин олса.

Агар ўтган асрлардаги сиёсий вазият ва сиёсий маданиятни тасаввур қилганимизда, бу қўшиқ, ўша давр халқининг сиёсат соҳасидаги, адолатнинг энг юксак кўриниши сифатида, халқни олий нияти сифатида куйланган. Шу одий сатрда жамиятнинг ижтимоий-сиёсий муносаблар муҳити ўз аксини топган. Бу ерда халқнинг сиёсий маданиятининг ўзвий қисми сиёсий онг, сиёсий хулқ-атвори мужассамдир. Гарчи мажозий бўлсада, ҳар қим ўз севганига эришса, бунадай эркинликни таъминлаган подшоҳ энг адолатлиси деб, юксак баҳоланаяпти.

Умуман сиёсат сўзининг (киши исми мисолида) Шарқ тилларида келиб чиқиши билан боғлиқ жуда қизиқарли талқинлар бор. Хусусан, унинг араб тилидан келиб чиқиши билан асосланган фикрларга кўра, “Сиясат”даги “сии” сўзи сўзма-сўз таржимада “ёруғлик”, “равшанлик” дегани. Бироқ унинг, мажозий мантиқи, дунё, олам деган маънода қўлланилади ва “сиёсат олами”, “сиёсат дунёси”ни билдиради. Яна бир талқинга кўра умуман “зукколикни” ёки “бошқарувда зукколик” маъноларида келади. Бошқа талқинларга кўра,

сиёсат сўзи туркий тиллардан келиб чиққан бўлиб, “айёрлик”, “хийлагарлик” деган маънони беради дейилган. Бу ўринда ҳам бу сўзларнинг мантиқи мажозий маъноси эса, фавқулода вазиятларда зукколик билан ностандарт қарор қабул қилиш маҳорати тарзида талқин қилиш мумкин¹.

Назаримизда сиёсат сўзининг келиб чиқиши ва ҳозиргача мавжуд сиёсий тизимлар табиатидан келиб чиқиб, хулоса қилинадиган бўлсак, араб ва туркий тиллардаги сиёсат истилоҳлари давлат ва сиёсатнинг ҳақиқий мантиқига яқин дейиш мумкин. Чунки, сиёсий бошқарувда юқорида келтирилган фазилат ва ҳатто лозим бўлса иллатларга асосланган услублар қўлланилади. Сиёсий онг ҳам сиёсий бошқарув табиатидан келиб чиқиб шаклланади ва камол топар экан, у минтақа ёки мамлакатдаги сиёсий тизимлар, тузумлар табиатига мос равишда бўлади. Шу боисдан ҳам турли халқлар, жамиятлар ҳатто айрим жамоаларда, турли социал гуруҳ ва қатламларда сиёсий онг ва маданият бир-бирига сира ўхшамаган бўлиши табиий ҳол.

Агар гап бевосита сиёсий онг хусусида борар экан, унинг замонавий сиёсатшунослик илмида жуда баҳс-мунозарали, ихтилофли мавзулардан бири эканлигини айтиш муҳим. Масалан, А.А.Борисенков ўз тадқиқотларида сиёсий онгни сиёсий билимларнинг энг муҳим ажралмас таркиби, муҳими сиёсий онг сиёсий били ва маданиятнинг белгиловчи манбаси эканлигини таъкидлайди. Шу билан бирга сиёсий маданият ва сиёсий онг тадқиқи ва ҳозирда мавжуд бўлган илмий хулосаларга жиддий эътирозлар, қатъий қарши фикрлар ҳам борлигини эътироф этади². У сиёсий онгнинг таркибини ташкил этган сиёсий билимларни қуйидагича тизимлаштиради: сиёсий билимнинг асосий қисми – илмий ва ноилмий асосларидан иборат бўлиб, ноилмийси: доимий кундалик ва назарий қисмлардан иборатлиги, илмийси

¹ Имя «Сиясат»: версии о происхождении и значении имени. <https://famiry.ru/database/names/siyasat>. Яна қаранг Ўзбек тилининг изоҳли луғати. <https://izoh.uz/uz/word/siyosat>

² Борисенков А.А. О политическом сознании // Философская мысль. 2013. № 4. С. 1-29. DOI: 10.7256/2306-0174.2013.4.227 URL: https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=227

эса: эмпирик ва назарий қисмлардан иборат эканлигини айтади¹.

Биз олимнинг фикрига қўшимча сифатида шуни айтишимиз мумкинки, ҳамма соҳаларда бўлганидек, сиёсатшунослик илмида ҳам ҳаммаси орзу қилинганидек, ёки назарийчилар асослагандек силлиқ кечмайди. Назария бошқа амалиёт бошқа. Бу ерда Гётенинг машҳур иборасини эслаш ўринли: *“Назария қуруқдир дўстим, лекин, яшнар ҳаёт дарахти”*. Муаммо шундаки, кўплаб назариялар шаклланиб улгурмаёқ эскиради. У реал ҳаётга мос келмай қолади. Яна бир жиҳати борки, кўплаб назариялар шунчаки сиёсий популизмдан иборат бўлиб, уларни амалиётга тадбиқ этишни умуман имкони йўқ. Яна бир жиҳати, яратилган назариялар ёки концепциялар уларнинг яратган муаллифларининг фаразлари, ҳаваслари ва фантазияларидан иборат бўлади²

Юқоридаги берилган турли таъриф ва талқинларга таянилган ҳолда сиёсий онгга умумий тарзда қуйидаги таърифлар берилган: Сиёсий онг бу – фуқаро ёки фуқароларнинг сиёсат соҳасида сезгилари, сиёсий муҳит ҳолатидан кайфияти, билимлари, баҳолари, башоратларининг идрок қилиш тизими ҳисобланади. Сиёсий онг ўз ичига шахснинг соҳадаги қарашлари, дунёқараши, тасаввурлари, туйғулари, эътиқоди, одамларнинг ҳиссиётлари, кайфияти, жамият ҳаёт тарзини ташкил қилган моддий ашёлар ва жамиятда юз бераётган бутун ўзгаришлар тизими бўлиб, бу билимлар тизими ва баҳолар, алоҳида индивидлар, гуруҳлар, синфлар, табақаларнинг умумий муносабатларида содир бўлаётган жараёнлар билан уйғунлашади. Шу зайдда сиёсий онг сиёсий ҳаётни бутун, яхлит фаолият юритишини ва тараққиётини таъминловчи асосий элементи ҳисобланади.

¹ Борисенков А.А. О политическом сознании // Философская мысль. 2013. № 4. С. 1-29. DOI: 10.7256/2306-0174.2013.4.227 URL: https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=227

² Норов Т.О. Ҳукукий, дунёвий ва ижтимоий давлат тушунчалари: назария ва амалиёт.

<https://www.oriens.uz/media/conferencearticles/49-%D0%9D%D0%BE%D1%80%D0%BE%D0%B2-%D0%A2%D0%BE%D0%B6%D0%B8-%D0%9E%D0%BC%D0%BE%D0%BD%D0%BE%D0%B2%D0%B8%D1%87-443-456.pdf>

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. П.Шамсиев., С.Иброҳимов., Навоий асарлари луғати Тошкент Ғ.: Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти 1972.- Б 556-557.
2. Навоий А. Маҳбуб ул-қулуб МАТ 20 томлик Т.: “ҒАН” 1998. 14 жилд Б-12. яна қаранг С.Олим Навоийёшларга Т.: 2008.- Б- 58-59.
3. Навоий.А. Фарҳод ва Ширин МАТ 20 томлик Т.: “ҒАН” 1991.- 8 жил Б-108.
4. Шу манба Б-109
5. Навоий.А. Фарҳод ва Ширин МАТ 20 томлик Т.: “ҒАН” 1991.- 8 жил Б-108.
6. Навоий А. Садди Искандарий МАТ 20 томлик Т.: “ҒАН” 1993.- 11 жилд Б 107.
7. Шу манба Б-109
8. Норов Т. Алишер Навоий ижтимоий қарашларининг фалсафий таҳлили. Монография. – Т.: 2016. –Б. 40-50.
9. Имя «Сиясат»: версии о происхождении и значении имени. <https://famiry.ru/database/names/siyosat>.
10. Яна қаранг Ўзбек тилининг изоҳли луғати. <https://izoh.uz/uz/word/siyosat>
11. Борисенков А.А. О политическом сознании // Философская мысль. 2013. № 4. С. 1-29. DOI: 10.7256/2306-0174.2013.4.227 URL: https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=227
12. Борисенков А.А. О политическом сознании // Философская мысль. 2013. № 4. С. 1-29. DOI: 10.7256/2306-0174.2013.4.227 URL: https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=227
13. Норов Т.О. Ғуқуқий, дунёвий ва ижтимоий давлат тушунчалари: назария ва амалиёт. https://www.oriens.uz/media/conferencearticles/49_%D0%9D%D0%BE%D1%80%D0%BE%D0%B2_%D0%A2%D0%BE%D0%B6%D0%B8_%D0%9E%D0%BC%D0%BE%D0%BD%D0%BE%D0%B2%D0%B8%D1%87_443-456.pdf

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14636163>

СИЁСИЙ ОНГ ТУШУНЧАСИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТАРИХИ ВА ЖАҲОН ҲАМЖАМИЯТИДАГИ АҲАМИЯТИ

Эшбеков Б.Н

Самарқанд тиббиёт Университети бўлим бошлиғи

Аннотация: Мақолада сиёсий жараёнлар улар талқин қилинган таълимотлар эволюцияси тўғрисида, сиёсий муносабатлар, сиёсат сўзининг келиб чиқиш тарихига назар акс эттирилган.

Калит сўзлар: сиёсий жараёнлар, сиёсат, давлат, жамият, сиёсатшунослик

Биз бу фаслда сиёсий жараёнлар улар талқин қилинган таълимотлар эволюцияси давомида берилган назарий нуқтаи назардан берилган таърифлар, илмий таҳлилларда муҳокам марказида бўлган сиёсий онг масаласини тадқиқ қиламиз. Негаки, мантиқан олиб қаралганда, фалсафий нуқтаи назардан онгнинг турли шакллари қатори сиёсий онг Оммавий аҳборот воситаларидан илгари пайдо бўлган ижтимоий-психологик ҳодиса ҳисобланади. Умуман, сиёсат сўзи, сиёсат категориясининг этимологик жиҳатдан келиб чиқиши жуда мураккаб ва унинг талқинлари билан боғлиқназариялар ҳам шундай чигал, ихтилофли, қизғин баҳс-мунозаралардан иборат. Сиёсий муносабатлар шаклланишига асос бўлган давлатларнинг пайдо бўлиши билан боғлиқ қарашлар борасида ҳам турли назариялар, уларнинг таҳлилий талқинлари хусусида ҳам турли зиддиятли илмий хулосалар бор. Сиёсатнинг энг даслабки даврлардаги приметив ҳолатидан, унинг бошқарув усуллари такомиллашув йўли ва ниҳоят сиёсат

ва сиёсатшунослик фан сифатидаги ҳозирги ҳолатига келгунича минлаб йиллик зиддиятли, аёвсиз курашлар, мураккаб муносабатлар, қарашлар йўлини босиб ўтганлиги манбалардан аён.

Дунё халқларининг доно раҳнамо, адолатли ҳукмдор ҳақидаги орзу-уйлари халқ оғзаки ижодига хос мақол ва маталлар, асотирлар, ҳикоялар, дostonлар, кейинчалик ёзув маданияти пайдо бўлгач ёзма манбаълардаги асосий ва марказий ўринларда бўлиб келган. Гарчи, ҳозирги давргача илмий муҳокама ва хулосаларга асос бўлган адабиётларнинг ибтидоси юнон манбалари деб қаралсада, сиёсат бобидаги манбалар тарихи ундан анча қадимги даврларга бориб тақалади. Назаримизда, шуларнинг ўзи сиёсий онг ва сиёсий маданиятнинг ўзига хос кўриниши деб баҳоланиши мумкин.

Алоҳида таъкидлаш лозимки, биз тадқиқ қилаётган мавзу мағзини ташкил этган, сиёсий онгга ва оммавий ахборот воситалари категориялари сиёсатшунослик фани ихтисослиги бўйича илмий талқин этилар экан, аввало сиёсатшунослик сўзининг ўзагини ташкил этган сиёсат сўзининг келиб чиқиши бўйича ҳам турлича баҳсли масалалар бор. Эътиборли жиҳати шундаки, биз ҳозир таҳлил ва тадқиқ қилаётган сиёсатшуносликка оид манбаларда сиёсат сўзи, юнонча *polis* – яъни шаҳар давлат сўзидан келиб чиққан деган фикрнинг сифатида қадимги Юнонистондаги кўрғонлар, шаҳар давлатлар бўлган, уларда дастлабки давлатга хос аломатлар номоён бўлган. Шундан, юнон маданиятининг маънавий меросхўри бўлган Ғарбий Европа тилларига *polis*, кейинчалик *politik*, политика шаклида кириб келган, ундан рус тилига ўтган деган асослар келтирилган. Энди шундай савол туғилади, унда бизни тилимизга сиёсат, сиёсатнома, сиёсатшунос сўзлари қандай кириб келган ва биз нега политика демасдан, сиёсат деймиз?

Аввало ҳозир глобал маънода ва дунё илмий мактабларида эътироф этиган политология тарзидагиталқинига бир тўхталсак.

Сиёсат (юнонча *politik* – давлатни бошқариш санъати) – давлат ва жамиятни идора этиш воситаси. Сиёсат ўз табиати, мақсади ва амалга

ошириш услублари, манфаатларни ифода этиш даражаси билан фарқланади. «Миллий сиёсат», «демократик сиёсат», «тоталитар сиёсат», «холис сиёсат» ёки «нохолис сиёсат» каби қатор кўринишларда намоён бўлади. Улар халқлар тараққиётига ҳар хил таъсир кўрсатади. Шунингдек, сиёсатнинг ижобий ёки салбий роль ўйнаши мумкинлигини собиқ мустабид тузум тажрибасидан ва айрим давлатлар ҳаётидан билиб олиш мумкин. Сиёсат турли ижтимоий гуруҳлар, кучлар манфаатини ўзаро уйғунлаштириш билан боғлиқ ҳолда кечади. Акс ҳолда, сиёсий ҳаётда бошбошдоқлик, парокандалик, сиёсий таназзул ҳолати юзага келиши ҳам мумкин.

Сиёсатшунослик – сиёсий ҳокимият ва унинг амал қилиш қонуниятлари, категориялари, тушунчалари, сиёсий ҳаёт оқими, бошқарувчилар билан бошқариладиганлар ўртасидаги сиёсий муносабатлар, бетўхтов содир бўладиган сиёсий жараёнлар моҳияти, мазмуни, асосий йўналишлари, жамиятни сиёсий бошқариш маҳорати, ички ва ташқи сиёсат юритишнинг назарий-амалий асослари ҳақидаги фан ва билим соҳаси. Сиёсат билан шуғулланиш жараёнлари давлат ҳокимияти механизмининг шаклланиши билан бошланган бўлиб, ибтидоий даврлардан бошлаб амал қила бошлаган. Кейинчалик Шарқ давлатчилиги (Миср, Бобил, Шумер, Аккад, Мидия, Форслар давлати, Ассирия, Урарту), Юнон полислари, Рим республикаси, Бактрия, Хунлар давлати, Парфия, Кушон давлатларида амал қилган ҳокимиятлар сиёсатини ўрганиш, улар ечимини топишга интилиш, сиёсий билимларнинг назарий-методологик асосларини яратиш зарурияти вужудга келди. Жамиятни сиёсий бошқариш маҳорати ҳамда санъати тўғрисидаги дастлабки сиёсий ғоялар ва таълимотлар, қонун-қоидалар мажмуи яратилиб, амалиётга киритила бошланди. «Авесто»да ифода этилган жамият сиёсий ҳаётининг тартиб-қоидалари, Хамураппи қонунлари, Ману қонунлари, Ликург, Драконт, Солон қонунлари, Конфуций, Суқрот, Афлотун, Арасту сиёсий таълимотлари, Юстиниан кодекслари, Темур тузуклари, сиёсий арбобларнинг қарашлари ва Ер куррасининг турли ҳудудларида

вужудга келган сиёсий фикр-мулоҳазалар, ғоялар, таълимотлар мажмуи ҳозирда шаклланиб, кенг кўламда амал қилаётган сиёсатшунослик соҳасига манба бўлиб хизмат қилди.

Сиёсатшунослик даставвал сиёсий фалсафа бағрида, кейин эса сиёсий социология таркибида, қисман, сиёсий тарих, сиёсий таълимотлар тарихи, юриспруденция таркибий қисмлари сифатида тадқиқ ҳамда таҳлил этилиб, ўрганилди ва ўқитилди. Лекин Ер юзида ижтимоий ишлаб чиқаришнинг умумлашуви, ижтимоий-сиёсий муносабатларнинг уйғунлашуви натижасида ривожланган мамлакатлар шароитида сиёсатшуносликни алоҳида билим соҳаси сифатида ажратиб ўрганиш ва ўқитишга эҳтиёж сезилди. Шунинг учун ҳам XIX асрнинг охирларидан АҚШда, кейинчалик Франция, Италия, Германия, Белгия, Голландия каби мамлакатларда бу фан ва билим соҳасига алоҳида эътибор берилиб, унинг илмий мактаблари ва илмий тадқиқот марказлари вужудга кела бошлади. БМТ қошида 1949 йилда Сиёсий фанлар халқаро уюшмаси таъсис этилди. Мазкур уюшманинг дастур ва низомини имзолаган ҳар бир БМТ аъзоси бўлган давлат ўзида Сиёсатшунослик фанини ўқув юртларида ёшларга ўқитиш, журнал ва ўқув қўлланмалар нашр қилиш, илмий тадқиқот марказларини ташкил этиш мажбуриятини олган эди. Ҳозирги кунда БМТга аъзо бўлган барча ривожланган мамлакатлар ўқув юртларида сиёсатшунослик энг нуфузли ва обрўли ижтимоий фанлардан бири сифатида кенг ўқитилади ва тарғиб этилади. Сиёсатшунослик бўйича журналлар, рисоалар, монографиялар нашр қилинади, илмий тадқиқот марказлари ишлаб турибди. Сиёсатшуносликнинг категориялари, тушунчалари, қонуниятлари мазмуни, моҳияти, сиёсий таълим тизими, илмий тадқиқот услублари кенг, ранг-баранг кўриниш ва шаклларда турли мамлакатларнинг олимлари томонидан тадқиқ этилмоқда. Сиёсатшунослик фани Ўзбекистонда мустақилликка эришилгандан сўнг олий таълим тизимига киритилди. Шу туфайли, мамлакатимизнинг барча олий ўқув юртларида сиёсатшунослик фани кенг ўқитилиб, янгидан нашр этилаётган ўқув

қўлланмалар ва дарсликлар воситасида ёш авлод сиёсий билимларини ошириш, сиёсий онг даражаси ва сифатини замон талаблари даражасига кўтаришга алоҳида эътибор бериляпти.

Албатта, сўнгги ўрта асрларда политология умумжаҳон фанларидан бири сифатида шаклланмаган эди ва табиийки, “унинг қонуниятлари, категориялари, усуллари ва вазифалари, сиёсатни амалда қўллаш” масалалари тизимли равишда ўрганилмаганди. Шунга қарамай, бугунги сиёсатшунослик фанига оид категориялар, қонуниятлар нуқтаи назаридан ўзига хос қарашлар мавжуд бўлган. Масаланинг яна бир муҳим томони Шарқ ва Ғарб сиёсий фалсафасининг шаклланиш негизи ва лисоний факторларни ҳисобга олиш зарур.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Сиёсат. <https://oyina.uz/kiril/teahouse/2269>
2. Основы политической науки. Учебное пособие для высших учебных заведений. Часть I. –М.: МГУ им.М.В.Ломоносова, 1996. –С.157.
3. Сиёсатшунослик. <https://oyina.uz/kiril/teahouse/2269>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14636174>

ФИЗИКА - БУ ЖУДА ОДДИЙ

У.Б.Жўраев

СамДУ доценти,

В.Ибрагимова-Шахрисабз кимё технология институти ходими.

Табиат ҳодисаларни ўзгарувчи фанларга табиий фанлар деб аталади. Бу фанлар жумласига физика, кимё, табиий география фанлари киради. Бу фанлар орасида физика фанининг алоҳида ўрни бор. Ишонч билан айтиш мумкинки, физика фани барча табиий фанларнинг илмий, услубий асосини ташкил қилади. Физика фанини яхши ўзлаштирган киши унинг барча қонунларининг ҳаётда бажарилишига ўзларида комил ишонч ҳосил қилишга эришадилар. Бу фанни яхши ўзлаштирмаган кишилар эса физика фанини қонунлар ва формулалар тўплашдан иборат мураккаб фан сифатида тасаввур қиладилар. Шунинг учун ҳам ҳалқ орасида шундай ибора пайдо бўлган: Физикларнинг лириклардан нима фарқи бор деганда: Лириклар табиатда чиройли нарсаларни, ҳодисаларни кўрганда ҳаяжонланадилар, физиклар эса энг аввало бу ҳодисаларнинг моҳиятини тушунадилар ва ундан кейин ҳаяжонланадилар, деб жавоб қатарадилар.

Ўқувчи физика фанидан бирорта мавзунинг аввал тушуниб олса, унинг физик моҳиятини англай олса бу мавзу унинг ёдидан бир умрга чиқмайдиган бўлиб қолади. Кўп йиллик олий ўқув юртидаги педагогик тажриба натижаларига таяниб айтиш мумкинки, аудиторияда маъруза ўқиётганда қайси талаба сизни бутун вужуди билан тинглаб эшитиб, сизни бутун вужуди билан тинглаб эшитиб, сизнинг айтган ҳар бир сўзингизга кулоқ солиб тинглаптию, кимлар аҳамиёт бермаётганлигини сезиб турасиз. Натижа эса шу кузатувчига яраша бўлиб

чиқади. Биз ҳар доим дарс ўтаётганимизда мазкур мавзунини сиз ўқув адабиётларида берилган материаллар билан солиштириб, мустақил равишда ўзлаштиришга ҳаракат қилинг, деб айтамыз. Шундагина ўтилган мавзу сизнинг билимингизга айланади.

Физика фани ҳам бошқа фанлар каби кишилик жамиятдаги кундалик эҳтиёжлар оқибати туфайли пайдо бўлган ва ривожланган. Кундалик турмушда биз ўзимиз билиб ёки билмай физика фани қонунлари ёки ютуқларидан фойдаланамиз ва амал қиламиз. Масалан: Барча тирик жонзод борки, нафас олади ва чиқаради. Инсонлар ҳам шу жумладан, нафас олиш учун ўпкани кенгайтирамыз яъни ўпка ҳажмини ошириб ичкаридаги ҳаво босимининг камайтирамыз. Натижада ташқаридан тоза ҳавони ютиб оламиз ва қон томирларига кислород юбориб қонни кислород билан бойитамиз. Ўпка ҳажмини қикартириши орқали углерод билан бойиган.

Ҳаво-Карбонат ангидрадни ташқарига чиқарамиз. Физика фани нуқтаи назаридан ҳар бир инсон ёки жонивор ёпиқ маълум бир термодинамик система ҳисобланади. Шу системанинг температураси, қон босимининг ўзгариши нормал ҳолатда маълум бир температура ва босим интервалида бўлмоғи лозим. Ҳаммага маълумки соғлом кишининг тана температураси $36,6^{\circ}\text{C}$ ва қон босими 80-120 мм. симоб устуни интервалида бўлади. Инсон танаси температураси ва қон босимининг шу нормал кўрсаткичдан четланиш (ошиши ёки камайиши) организмда маълум бир касалликлар пайдо бўлишидан далолат беради. Бу эса термодинамик система мувозанат ҳолатда (киши касал бўлмаган соғлом вақтида) унинг ҳолатини аниқловчи барча параметрлар инчон ҳаётида амал қилишни кўрсатади.

Халқимизда уйимизга келган меҳмонга эҳтиром кўрсатиш қадимий одамлардан ҳисобланади. Шу боис ўлароқ меҳмон уйга кириши билан янги кўрпачалар тўшалиб ёнига болиш ҳам қўйилади ва озгина ёнбошлаб дамнингизни олинг, деб айтилади. Бунда ҳам ўзимиз билмаган ҳолда физика қонунларига риоя қилар эканмиз. Гап шундаки, юрак барча тирик организмларда бутун жусса

бўйлаб қон томирлари орқали қон ҳайдовчи асосий восита яъни ҳаёт нососи ҳисобланади. Ҳар доим иш фаолиятида бўлади. Айниқса, инсон юрганда бирор иш бажараётганда тик бир жойда турганда ҳам бутун организмдаги мушак, мускул ва аъзоларни янги қон бўлаги билан таъминлаш учун узлуксиз ортиқча юклама билан ишлаб туради. Агар инсон ўтирса, ёнбошласа, айниқса горизонтал ҳолда ётиб олса бутун организмни қон билан таъминловчи юракка юклама камроқ тушади. Шунда юрак иш бажараётган , юрган,тик турган ҳолатга нисбатан бир мунча дам олади. Шу ўринда юрак фаолияти ҳақидаги эски бир ривоятни эслаш жоиздек туюлади: Инсон организмдаги ҳар бир аъзодан сўрабдилар: Оёқдан сўрабдилар, сен қачон дам оласан, менинг эгам юрмаганда дам оламан: қўлдан сўрабдилар, сен қачон дам оласан, эгам қўл билан иш бажарганда дам оламан: кўздан сўрабдилар, сен қачон дам оласан, мен чиройли манзарадарни кўрганда ва эгам ухлаб олганда: бурундан сўрабдилар, сен қачон дам оласан, менинг эгам чиройли ва хушбўй хидларни хидлаганда, оғиздан сўрабдилар , оғиз менинг эгам мазали ва тотли таомларни истеъмол қилганда, ўпкадан сўрабдилар, менинг эгам тоза ва тиниқ ҳаводан нафас олганда дедилар ва ниҳоят юракдан сўрабдилар сен қачон дам оласан сен ҳеч вақт тинмай ишляпсанку деганларида юрак айтибди менинг эгам яхши дўстлар даврасида бўлиб яхши чарчақлаганда деб жавоб берган экан шунинг учун ҳам юраккадам бериш учун яхши дўсти кадрдон биродарлар яқин оғъа даврасида бўлиб улар билан суҳбат куриб туриш юраккадан берар эканлигини ҳамма ҳам билавермаслиги мумкин.

Физика фанининг энг муҳим қонунларидан бўлиб нютон томонидан эълон қилинган қонунлар ҳисобланади Аммо бу қонунларнинг кундалик турмушда ҳар бир инсон тўқнаш келишини ҳамма ҳам тасаввур қила олмаслиги мумкин бу қонунлар динамика қонлари деб аталиб нютон томонидан биринчи марта 1687 йилда эълон қилинган. Натур фалсафанинг математик бошланиши деб аталган асарида эълон қилинганлиги учун унинг номи билан аталади ённинг биринчи қонуни аслида нютон томондан голлогали томонидан таърифланган бўлиб у

қандай таърифланган бўлса нютон шу тарифни қабул қилди биз қонун қуйидагича таърифланади бирор жисмга бошқа бир жисм таъсир этмаса у ўз унинг минг ёки тўғъри чизикли текис ҳаракат ҳолатини сақлайди бу тарихдан кўринадики бирор жисм ёки предметни бирор жойга қўйсақ токи унга бошқа бир киши тегинмаса ўз жойида тураверади дегандир биз кўп ҳолларда бирор нарсани бирор жойга иймонимизни эсдан чиқариб ёки унутиб уни ахтариб қоламиз ёки бирор киши уни олган бўлиши ҳам мумкин натижада эса ҳаммага маълум кўп қонларда кўнгилсизликлар ёки гумонларга сабаб бўлиши мумкин агар ҳеч ким бу предметга тегинмаса у ўз жойида турган бўлиши керак эди нютоннинг иккинчи қонуни текис ҳаракатланаётган жисм тезлигининг ўзгаришига ташқи кучлар сабабли эканлигини ўқитиради масалан бирор гулдиракни олиб юмалатиб юборайлик биринчи ташқи туртки ҳисобига ҳаракатга келган ғилдирак юмалаш даволашда бошқа ташқи кучларга дуч келади бу кучлар ер билан ғилдирак орасидаги қўш кучи иккинчидан ғилдирак нималаётган муҳитдаги ҳавонинг қаршилиқ кучи шу кучлар таъсирда юмалаётган ғилдирак ўз тезлигини камайтириб боради ва охир-оқибат ғилдирак юмалашдан тўхтади бундай мисолларни ҳар қадамда ўргатиш мумкин лекин биз уларнинг нютоннинг иккинчи қонунинг амалдаги исбот сифатида эмас ўз-ўзида бўлиши ёки кузатилиши лозим бўлган воқеа сифатида бефарқ қарамаймиз нютоннинг учинчи қонунинг ҳам амал қилиниши ҳаётда жуда кўп кузатишга кузатганлигимиз аммо эътибор бермаганмиз нютоннинг учинчи қонуни куч қаердан пайдо бўлади.

Иккинчи жисм таъсир этса иккинчи жисмга ҳам биринчи жисм томондан куч таъсир этади бу кучларнинг сон қийматлари тенг бўлиб уларнинг ишоралари ҳаракатлари қарши эканлиги ўқтирилади бунинг амалда исбот сифатида қуйидаги мисолда келтириш мумкин одатда сиз юмшоқ ёки тошлоқ ерда яланг оёқ юрганингизда оёқларимиз остига таъсир қилувчи кучларнинг фарқини яққол сезамиз қишлоқ жойда юрганимизда сиз кумнинг оёқ остига таъсирни деярли сезмайсиз агар ер тошлоқ бўлса тошқирралари оёғингиз остига сезиларли таъсир қилади натижада сиз маълум оғриқни ҳис қиласиз энергиясини ишлаб

чиқаришнинг жорий этилиши физика фани доирасида инсон онга фаолиятининг энг буюк кашфиётларидан бири деб айтиш мумкин. Чунки бугунги кунда ҳаётни электр энергияси тасаввур ҳам қилиш мумкин эмас яшаш манзилларимизда бирор кун электр энергияси узулиб қолса уйда барча электр энергиясидан фойдаланиб ишловчи қурилмалар оддий ёритгич лампалардан тортиб телевизор совутгич кондиционер чангютгич кир ювиш машиналари мобил алоқа воситалари ва ҳоказолар барчаси электр энергияси туфайли ишламай қолади ҳозирги замон электр энергиясини ишлаб чиқарувчи барча электр манбалари фақат қуёш батареяларидан ташқари гресс исе шамол электр станциялари инглиз олими м парадийи томонидан ихтиро этилган электромагнит индукция қонуни асосида ишлаб чиқаришни ҳамма ҳам билавермаса керак мф фаредийнинг бу қонуни кашф этилишига туртки бўлган сабаб 1820-йилда касб этилган эрес тажрибаси бўлган эди ўша йилларда волта элементлари орқали доимий ток ҳосил қилиши усули маълум эди. ана шундай ҳосил қилинган токки ўтказгич яқинига магнит стрелкаси яқинлаштирилганда магнет стилокасининг ҳолати ўзгаришини эришиши пайқади ток-тўпланиш ўзгариши билан магнетизралкасининг вазияти ўзгариб магнит стрелкаси ҳар доим топли ўтказгачга перпендикуляр ҳолатда бўлишини кузатди ана шундай тажриба натижалари эълон қилингандан кейин мфрадагилар таклиф ўтказгич магнит сралкасининг вазиятининг ўзгаришига сабаб бўлса магнетдан фойдаланиб ўтказишга ток ҳосил қилиши мумкинлиги деган саволга жавоб излай бошлади бу изланишлар тажрибасидан 11 йил ўтиб 1831-йилда ўз самарасини берди.

Гавар Номарга уланган зайтак ичига магнит таёқчаси киритилганда галван номе метр ток пайдо бўлишини кўрсатди фарадай тажрибаларни узлуксиз давом эттириб унинг ҳозирги замондаги барча олимлар томонидан тан олинган қонуниятини очди бу қонун қуйидагигача таърифланади электр ўтказишнинг кўндаланг кесим юзасини кесиб ўтувчи магнет оқими ўзгарса электр чўлгани учларида электр потенциаллар фарқи юзага келади яъни электр токи пайдо бўлади ҳосил қилинган яъни индуксияланган электр энергияси кучланиши

қайтақдаги ўтказгич ўрамлар сонига ўтказгич кўндаланг кесимини кесиб ўтувчи магнет оқимининг ўзгариши тизимига боғлиқ электр энергиясини ишлаб чиқарувчи қурилмаларга генераторлар дейилади генераторлар асосан икки қисмдан яқин ва статордан иборат бўлиб яқин айланма ҳаракатланадиган стартер эса кўзгьалмасдан доимий турадиган қисмдан ташкил топади генераторлар турларга қараб стартер қисми гьалтак орамиздан яқин эса магнет майдони ҳосил қилувчи қисмлардан ёки аксинча ҳам бўлиши мумкин иборат бўлади ГЭСлар афзалларида тўпланган сувнинг потенциал энергияси юқоридан пастга шу келтирилган сув оқими ҳисобига грейсларда газ кўмир мавзуд ёнишидан ҳосил бўлган энергия ҳисобига асрларда эса атом энергияси ҳисобига қиздирилган сувни бу ҳолатга келтириб айланувчи яккор ҳисобласига урилиши натижасида айланма ҳаракат юзага келтирилиши туфайли электр энергияси ишлаб чиқарилади 19-асрнинг 6-йилларда электр ва магнит майдон ҳосилларига инглиз олими д- макковел тўхталиб электр ва магнит майдонларининг бир бутунлигини кўрсатди ҳамда бу масалаларни назарий равишда талқин этиб ҳар қандай упер малаланган магнит майдон атрофида электр майдони ҳар қандай юрмаланган электр майдони атрофида магнит майдони пайдо бўлишини исботлади у ўзининг машҳур электромагнит майдон хоссаларини ифодаловчи тенгламаларни ёзиб кўрсатди бу тенгламалар электр магнет тўлқинларининг умумий хоссага эга бўлиб ёруғликнинг ўзи ҳам маълум тўлқин узунлигида эга бўлган электромагнит тўлқинидан иборат деган хулосага келинди ва шу орқали электромагнит майдонинг назарий асоси исботланди.

Айтилганлардан кўриндики, физика фани айрим ўқувчилар ўйлагандек жуда мураккаб тушуниш қийин бўлган фактлар сирасига кирмасдан, озгина эътибор талаб қиладиган, ўзига хос жиҳатлари эга эканлиги билан ҳам фарқ қиладигин ва қонунларидан фойдаланиладиган фан сифатида ҳам ўрганилиши лозим.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Б.И.Спасский “История физика” Высшая школа 1977
2. А,В, Кузнецов “Термодинамика” 2023 электронный научный архив,
3. С,Г Калашников Электричество Физика магнит. 2023.
4. И.В.Жураев, Г.Шарипов, А.Шодиев “Механика” 2023.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14636190>

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SINTAKTIK ELEMENTLAR USTIDA ISHLASH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH

Rustamova Zulfiya Xolmirzayevna

TDPU Boshlang‘ich ta‘limda ona tili va uni o‘qitish metodikasi kafedrası dotsenti

***Annotasiya:** mazkur maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslarida so‘z birikmasi va gap ustida ishlashning vazifalari hamda asosiy bosqichlari haqida fikr yuritilib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida so‘z birikmasini ajrata olish, gapni to‘g‘ri tuza olish, ulardan nutq paytida to‘g‘ri foydalana olish ko‘nikmalarini shakllantirish haqida, hamda gapda so‘zlarning bo‘g‘lanishi, so‘z birikmasini o‘quvchilarga tushuntirishda foydalanish mumkin bo‘lgan metodlar haqida ma‘lumotlar berib o‘tiladi.*

***Tayanch so‘zlar:** maktab yoshidagi o‘quvchilar, boshlang‘ich ta‘lim, ona tili, to‘g‘ri nutq, so‘z birikmasi, gap, so‘z birikmasi ustida ishlash ko‘nikmasi, gap ustida ishlash ko‘nikmasi, ko‘nikma.*

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ РАБОТЫ НАД СИНТАКСИЧЕСКИМИ ЭЛЕМЕНТАМИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

***Аннотация:** в данной статье отражены задачи и основные этапы работы над словосочетаниями и предложениями на уроках родного языка в начальных классах. о формировании умений различать словосочетания, правильно составлять предложения и правильно употреблять их в речи, а также связывать слова в предложении, словосочетаниях Студентам предоставляется информация о методах, которые можно использовать при объяснении.*

***Ключевые слова:** школьники, начальное образование, родной язык, правильная речь, словообразование, предложение, навыки словообразования, навыки построения предложения, навык.*

DEVELOPMENT OF SKILLS FOR WORKING ON SYNTACTIC ELEMENTS IN THE PRIMARY CLASS

Abstract: *this article reflects the tasks and main stages of working on phrases and sentences in native language lessons in primary school. about the formation of skills to distinguish between phrases, correctly compose sentences and use them correctly in speech, as well as link words in sentences and phrases. Students are provided with information about methods that can be used in explanations.*

Key words: *schoolchildren, primary education, native language, correct speech, word formation, sentence, word formation skills, sentence construction skills, skill.*

KIRISH

Ma'lumki, O'zbekiston yoshlar, ya'ni bizning mamlakatimiz. Vatanimiz siyosati ham har tomonlama bizlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilganini barchamiz guvohimiz. Konstitutsiyamizning 41-moddasida bepul umumiy ta'lim olish huquqini biz uchun kafolatlanganligi ham quvonarli holatdir. Yoshlarning bilim olishga bo'lgan huquqi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ham mustahkamlab qo'yilgan. Biz, ya'ni yoshlar o'z iqtidorimizni va iste'dodlarimizni to'la namoyon qilishga haqlimiz. Ona tiliga oid qarashlarni ko'plab buyuk allomalarimiz asarlarida ham uchratishimiz mumkin. Misol uchun Abu Nasr Forobiyning yaratgan asarlari ichida "Fanlar tasnifi" yoki "Fanlar tasnifi haqidagi so'z" kitobi tishunoslik masalalariga bag'ishlanganligi bilan ajralib turadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Buyuk alloma tilshunoslikning fonetika, morfologiya, sintaksis, orfografiya, orfoepiya va stilistika kabi bo'limlari haqida dastlabki tushunchalarni bergan. Forobiy sintaksis masalasida so'z birikmasi haqida, nutqning qismlarga bo'linishi, so'zlarning qay holatda birikish qoidalari va hukm bildirishi, so'zlarning birikishi turlari haqida fikr yuritadi. Yana bir buyuk allomalarimizdan biri Mahmud Koshg'ariy o'zining "Devon"i bilan sinxron-qiyosiy tilshunoslikka asos soldi va tilshunoslikning buyuk vakili degan ulug' nomga sazovor bo'ldi. Buyuk mutafakkirlarimizdan biri Alisher Navoiy ham o'zining "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida ham tilshunoslikka katta e'tibor qaratgan. Navoiy o'zining bu asarida qiyoslash asnosida turkiy tilning boy va

keng imkoniyatlarga egaligini alohida ta'kidlab o'tadi. Hozirgi zamondagi rus tilshunosi V.V.Vinogradov ham so'z birikmasiga alohida e'tibor qaratadi. Vinogradovning so'z birikmasi nazariyasiga qo'shgan hissasi juda kata bo'lib, so'zlarning bitta tuzilma tarkibida birikish qonuniyatlari to'g'risida bildirgan fikrlari ko'p yillardan buyon turli tillar orasida olib borilayotgan izlanishlarda yetakchi g'oya asnosida e'tirof qilinmoqda. O'zbek tilshunoslaridan Sayfullayeva, Mengliyev, Mirziyayeva kabi olimlar so'z birikmasi hamda gap ustida o'z qarashlarini aytib o'tganlar.

NATIJA VA MUHOKAMA

Eng avvalo, so'z birikmasi nima? Gap nima? degan savollarga javob topib olishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bu atamalar boshlang'ich sinf o'quvchilarimiz uchun yangilik hisoblanadi. Boshlang'ich ta'lim jarayoni o'quvchining mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismonan sog'lom bo'lishga, moddiy borliq go'zalliklarini his etishga, go'zallik va nafosatdan zavqlanishga, milliy urf-odatlarini o'zida singdirish va ardoqlash, ularga rioya qilishga o'rgatadi. O'zbekiston Respublikasidagi boshlang'ich ta'lim tayanch o'quv rejasi doirasiga ona tili, matematika, tabiat hamda inson va jamiyat ta'limi sohalari kiritilgan. Ona tili ta'limi o'quvchilarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirishga, mustaqil fikrlay olishi, atrofdagilar fikrini anglashi, o'zining fikrlarini og'zaki va yozma ravishda bayon qila olishi, insonlar bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga yordam beradi. Boshlang'ich sinflar ona tili fanini o'rganishning yetakchi insoniy tamoyili tilning barcha tomonlarini (leksikasi, fonetikasi, grammatikasi, so'z yasalishi) o'zaro bog'liq holda o'rganish hisoblanadi. Ushbu tamoyil tilni yaxlit hodisa sifatida o'rganishni ta'minlaydi va til insonlarning aloqa vositasi ekanini o'quvchilar tushunishlari uchun imkoniyat yaratadi. Bu tamoyil bo'limlar orasidagi mumkin bo'lgan bog'lanishni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

So‘z birikmasi- ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zning tobe grammatik aloqa asosida birikishi natijasida hosil bo‘lgan, borliqdagi narsa va hodisalarning nomini bildiradigan nutq birligi: ignaning ko‘zi, kitobni o‘qimoq, oydin kecha va boshqa. Har qanday so‘z birikmasi birdan ortiq mustaqil so‘zning birikuvidan hosil bo‘ladi. So‘z birikmasini o‘quvchilarga o‘rgatishda interfaol metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Interfaol metodlar o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’limiy yoki tarbiyaviy jarayonlarni amalga oshirishda ma’lum darajada samaradorlikka erishishni ta’minlasada, biroq, ularning har biri ta’lim yoki tarbiya jarayonida mahsuldorlikni ta’minlash maqsadida turli imkoniyatlarga ega. Shu sababli o‘qituvchilar interfaol metodlarni tanlashda o‘rganilayotgan mavzu, muammo yoki hal qilinishi lozim bo‘lgan masalaga e’tibor qaratishlari zarur hisoblanadi. So‘z birikmasi mavzusini o‘quvchilarga tushuntirishda quyidagi ta’lim metodlaridan foydalanish tavsiya etiladi: Bahsmunozara metodi. Metod ikki yoki undan ortiq o‘quvchilar tomonidan muayyan vaqt oralig‘i va qat’iy qoidalarga muvofiq tashkil etiladigan og‘zaki bahs bo‘lib, o‘quvchilarda o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha erkin, asosli fikrlarni bildirish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. O‘quv mashg‘ulotlarida bahsmunozaradan foydalanishda mavzuga doir ma’lum masalalar hal qilinadi. Shunday qilib, o‘quvchilarga so‘z birikmasini metodlar orqali o‘rgatish qulayroq bo‘ladi. Albatta, o‘quvchilar so‘z birikmasini o‘rganishgandan so‘ng ularda gap haqidagi taassavurlar paydo bo‘la boshlaydi. Gap o‘zi nima? Gap-so‘z yoki so‘zlar vositasida tushuniladigan, tugallangan fikr. Boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarining muhim vazifalaridan biri bu - fikrni ifodalashda gapdan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish hisoblanadi. Boshlang‘ich sinflarda gap ustida ishlashni shartli ravishda besh bosqichga ajratish mumkin:

1. Gap yuzasidan grammatik tushunchani shakllantirish ;
2. Gap qurilishini o‘rgatish (so‘z birikmasida so‘zlarning bog‘lanishi ustida ishlash, gapning grammatik asosini, bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarning xususiyatlari, yoyiq va yig‘iq gaplar ustida ishlash).

3. O'quvchilarning nutqida gapning maqsadga va ohangga ko'ra turlaridan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish;

4. Gapda so'zlarni aniq qo'llash ko'nikmasini o'stirish;

5. Yozma nutqda gapni to'g'ri tuzib yozish (uni bosh harf bilan boshlash, tinish belgilarini qo'yish) ko'nikmasini rivojlantirish.

Gapni o'rganish va nutqda undan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish o'quvchilarning bilimlarini doimiy kengaytirib, boyitib borishga asoslanadi. Boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan sintaktik material kam bo'lsa ham, butun o'quv yili davomida, boshqa mavzularga singdirilgan holda o'quvchilar bilan gap ustida ishlab boriladi. Milliy o'quv dasturiga ko'ra,

1-sinf o'quvchilariga Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida gap haqida boshlang'ich tushunchalar beriladi. Gap tugallangan fikrni bildirishi, gap so'zlardan tashkil topishi, uning oxiriga ma'lum tinish belgilari qo'yilishi haqida boshlang'ich ma'lumotlar beriladi;

2-sinf Ona tili va O'qish savodxonligi darsida esa o'quvchilar gapdan shu gap kim yoki nima haqida aytilganini va u haqda nima deyilganini bildirgan jumlaning ajratishga o'rganadilar. Aslida gapning grammatik asosi ustida ishlash mana shundan boshlanadi va bu bosh bo'laklarni o'rganishga boshlang'ich tushuncha bo'ladi;

3-sinf gap ustida ishlashning yangi bosqichi hisoblanadi. O'quvchilar gapni tushuncha sifatida o'rganishga o'tadilar. O'quvchilar gapning zarur belgilarni bilib oladilar. Bu bosqichda bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning ta'rifi, ega va kesim tushunchalari kiritiladi. Bu sinfda gapda so'zlarning bog'lanishiga katta e'tibor beriladi. O'quvchilar gapning asosi ega va kesimni ajratadilar, ikkinchi darajali bo'laklarni farqlay oladilar va gapdagi ikki so'z hokim va tobe so'zni, so'zlarning grammatik jihatdan, ya'ni qo'shimchalar orqali bog'lanishni bilib oladilar. Shuningdek, gapning maqsadiga ko'ra turlari, ya'ni darak gap, so'roq gap, buyruq gap hamda his-hayajon gaplar bilan tanishadilar.

4-sinfda o'quvchilar Nutq. Matn mavzusini o'rganish bilan gap haqidagi bilimlarini boyitadilar. Xususan, o'quvchilar matn nutqning yozma shakli ekanligini,

uni qismlarga bo'lish, unga sarlavha qo'yish, reja tuzish mumkinligi haqidagi tushunchlarga ega bo'ladilar. Shunday qilib, o'quvchilarda gap bo'laklari haqidagi tasavvurni o'stirish gapni o'zlashtirishda muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarda gap va so'z birikmasi haqida bilimlar shakllandi, ammo so'z birikmasi uchun qanday so'zlar zarur? So'z birikmasi tarkibidagi so'zlar qanday vositalar yordamida bog'lanadi? Shu asnoda savollar o'quvchilarda paydo bo'lishi mumkin, biz ularga qay yo'sinda javob beramiz? Gap tarkibidagi so'z birikmalarni ajratish ko'nikmasi uzoq mashq davomida shakllantirib boriladi. Buning uchun o'quvchilarning so'z birikmasidan bir so'zning boshqa so'zga tobeligini tushunishga qaratilgan mashqlar tizimidan foydalaniladi.

1. Yoyiq gap hosil qilish. Buning uchun gapning qaysi bo'lagi yoyishni talab qilishini aniqlash. Masalan, daraxtlar gullabdi gapini tahlil qilish uchun berilgan ega va kesim (gapning asosi) ajratiladi, daraxtlar qachon gullashini aytish uchun gapga qanday so'zni qo'shish kerak? Bu so'z gapning qaysi bo'lagi bo'ladi? (Ikkinchi darajali bo'lak). U gapning qaysi bo'lagiga bog'lanadi? (tobelanadi?) (Kesimga bog'lanadi) Qachon gullaydi? (bahorda gullaydi) Gapga egani izohlaydigan yana bitta so'z qo'ying. Qanday gap hosil bo'ldi? (Mevali daraxtlar bahorda gullaydi).

2. Tartibsiz berilgan so'zlar yordamida gapni qayta tiklash. Avval gapning asoslari (ega va kesim) tiklanadi (aniqlanadi), so'ng so'roqlar yordamida ikkinchi darajali bo'laklar (so'z birikmalari) «topiladi», tiklanadi. Masalan, Mashinada terimchi, teradi, paxtani. - Gap kim haqida aytilgan? (Terimchi haqida, Kim? terimchi) U haqda nima deyilgan? (Teradi. Terimchi teradi - bosh bo'laklar). - so'roqlar yordamida so'z birikmasini toping. Nimani teradi? (Paxtani teradi) Nimadateradi? (Mashinada teradi). Keyin gapda so'zlarning qulay tartibi aniqlanadi. (Terimchi paxtani mashinada teradi). Gap ohangi ustida ishlanadi.

3. Tinish belgilarisiz berilgan matndan gaplarni ajratish. Mashqning bu turi ongli bo'lishi uchun har bir gapning bosh bo'laklarini va so'z birikmalarini ajratish lozim. 4. Gapni tahlil qilish va sxemani tuzish. Gap tahlil qilinayotganda dastlab uning asosi ajratiladi, keyin egani izohlovchi ikkinchi darajali bo'lak, kesimni izohlovchi ikkinchi

darajali bo‘lak, boshqa ikkinchi darajali bo‘lakni izohlovchi ikkinchi darajali bo‘lak ajratiladi. Shunday qilib, asta-sekii so‘z birikmalari aniqlana boradi. 5. O‘qituvchi bergan sxema yoki so‘roqlar asosida gap tuzish: kim? kimlarni? Nima qiladi? (Shifokor kasallarni davolaydi). So‘z birikmasi ikki yo‘nalishda olib boriladi: 1) So‘z birikmasiga gap ichida gapning tarkibiy qismi sifatida qaraladi; 2) So‘z birikmasiga predmetning yoyiq nomi sifatida qaraladi, masalan, soat - so‘z, oltinsoat, qo‘l soat, osma soat, elektron soat - so‘z birikmalari. Albatta biz ularga buni oddiy qoidalar asosida, ular tushunishlari oson bo‘lgan talqinda tushuntirib berishimiz kerak. Ya’ni qanaqa: eng avvalo, mustaqil so‘zlarning nutqda bog‘lanishidan so‘z birikmasi hosil bo‘lishini tushuntiramiz va so‘z birikmasi bo‘lishi uchun quyidagi shartlarni bajarishi kerakligini tushuntiramiz: 1) kamida ikkita mustaqil so‘z bo‘lishi lozim; 2) bu so‘zlar ma’no jihatdan mos bo‘lishi kerak; 3) so‘zlarning biri ikkinchisiga ergashishi, ya’ni tobelanishi zarur; 4) qo‘shimcha va yordamchi so‘zlar mustaqil so‘zlarni bog‘lashi kerak; 5) kelishik va egalik qo‘shimchalari hamda ko‘makchilar (ohang ham) so‘z birikmalari tarkibida so‘zlarni bir-biriga bog‘lashga xizmat qiladi. O‘quvchilarimizga shularni esdan chiqarmaydigan qilib, ”bahs-munozara” metodi bilan tushuntirsak ularning so‘z birikmasini o‘rganish koefitsentlari yuqori bo‘lishiga ishonchim komil.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ularga umuman begona bo‘lgan atamalarni o‘rgatishda turli metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki ular yosh jihatidan kichik yoshda bo‘lganliklari sababli turli xil o‘yinlarni o‘ynashni, mashg‘ulotlar bajarishni yoqtiradilar. Shuning uchun boshlang‘ich sinflarga mavzularni tushuntirishda metodlardan foydalangan ma’qul.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqidan.
2. Masharipova, U. (2021). THE ROLE OF INNOVATION IN CONTINUOUS EDUCATIONAL SYSTEM. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 2021(4), 168-176.
3. Bakiyeva H. (2019) DEVELOPING ARTICULATION OF ELEMENTARY CLASS STUDENTS USING INDEPENDENT WORK METHODOLOGY *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol. 7 No. 6, 2019 ISSN 2056-5852 Progressive Academic Publishing, UK Page14
4. Obidjon o‘g‘li, Y. O., & Xolmirzayevna, R. Z. (2023, April). KORPUS–TABIIY TILLARNING MILLIY XUSUSIYATINI SAQLAB QOLISHDA MUHIM INSTRUMENT. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS* (Vol. 1, No. 14.04, pp. 61-64).
5. Rustamova, Z. (2022). LINGUISTIC BASIS OF CREATION OF DIALECTAL CORPUS OF UZBEK LANGUAGE. *Science and Innovation*, 1(8), 1255-1258.
6. Rustamova, Z. (2022). O‘ZBEK TILI DIALEKTAL KORPUSINI YARATISHNING LINGIVISTIK ASOSLARI. *Science and innovation*, 1(B8), 1255-1258.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14636198>

TILNING MODAL STRUKTURASI VA MODUSNING IFODALANISHI

Ayrbayev Dilshodxuja Temirbayevich

Toshkent davlat pedagogika universiteti professori v.b.,
filologiya fanlari doktori (DSc), ilmiy rahbar.

Aynur Kuzenbayeva Qudrat qizi

Boshlang'ich ta'lim 404 q guruh talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada tilshunoslikda modallik kategoriyasi tushunchasi haqida fikr yuritiladi. Modallik – og‘zaki nutqning ajralmas funksional alomatlaridan biri ekanligi, gap mazmunining obyektiv borliqqa va so‘zlovchining gap mazmuniga bo‘lgan munosabatlari hamda mazmuniy sintaksisda gapda ifodalangan mazmunning reallikka bo‘lgan munosabatini aks ettiruvchi obyektiv modallik borasida nazariy fikrlar yoritiladi.

***Kalit so‘zlar:** modallik, grammatik vosita, leksik vosita, frazeologik vosita, diktum, modus, subyektivlik, gap mazmuni, predikativ modallik, tilning modal strukturasi, konstruktiv-sintaksis, morfologik-sintaksis, intonatsion-sintaksis, propozitsiya, obyektiv voqelik.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается понятие категории модальности в лингвистике. Освещаются теоретические соображения о том, что модальность – один из неотъемлемых функциональных признаков устной речи, об

отношении содержания предложения к предметному бытию и содержанию предложения говорящего, а также об объективной модальности, отражающей в содержательном синтаксисе отношение содержания, выраженного в предложении, к действительности.

Ключевые слова: *модальность, грамматическая среда, лексическая среда, фразеологическая среда, изречение, модус, субъективность, содержание предложения, предикативная модальность, модальная структура языка, конструктивно-синтаксис, морфолого-синтаксис, интонационно-синтаксис, пропозиция, объективная реальность.*

ABSTRACT

This article reflects on the concept of the category of modality in linguistics. Theoretical considerations are highlighted on whether modality is one of the integral functional symptoms of oral speech, the relationship of the content of the sentence to the objective being and the speaker to the content of the sentence, and the attitude of the content expressed in the sentence to realism in the content syntax.

Keywords: *modality, grammatical tool, lexical tool, phraseological tool, dictum, mode, subjectivity, sentence content, predicative modality, modal structure of language, constructive-syntactic, morphological-syntactic, intonational-syntactic, proposition, objective reality.*

Tilda modallik kategoriyasi davrlar o'tishi bilan o'zgarib, takomillashib borayotgani hech kimga sir emas. "Modallik" atamasi bizni o'rab turgan keng borliq, olamdagi tabiat hodisalari, voqeliklar spektrini anglatish uchun qo'llanilib, o'zining turli xil ma'nolari, grammatik xususiyati va har xil til sathlarida qo'llanishi bilan ajralib turibdi. Funktsional jihatdan modallik turli xil vositalar bilan, jumladan, grammatik, leksik va frazeologik vositalar yordamida o'z ifodasini topadi.

Tilshunoslikda modallik tushunchasi so'zlovchining aytilayotgan gap mazmuniga, voqelikka munosabatini anglatuvchi ma'no kategoriyasi sifatida qaraladi,

ya'ni obyektiv voqelik so'zlovchi ongida aks etadi va u o'z munosabatini turli semantik kategoriyalar yordamida bildiradi. Demak, so'zlovchining kommunikativ niyati, uning gap mazmuniga emotsional munosabatini bildiruvchi subyektiv modallik garchi gapning faollashtiruvchi qismi bo'lsa ham, ularning tabiati va gap tuzilishidagi asosiy roli shunchalik xilma-xilki, ularni faqat grammatik rejada "turli sathlilik", semantik rejada so'zlovchining "munosabatini ifodalash" belgisi ostida birlashtirish mumkin, xolos [1; 97-116].

Modallik – og'zaki nutqning ajralmas funksional alomatlaridan biri. Modallik kategoriyasi tilning eng murakkab va muloqotning mazmunga boy jihatlaridan hisoblanadi. Mazkur kategoriya nafaqat tabiiy va ijtimoiy fan sohasi olimlarini, balki tilshunos olimlarni ham birdek qiziqtirib kelayotgan muammolardan biri bo'lib, leksikologiya, frazeologiya, so'z yasalishi, morfologiya, kognitiv va matn tilshunosligida keng qo'llanmoqda.

Odatda, gapdan anglashilgan obyektiv mazmun uchun diktum, uning subyektiv mazmuni uchun esa modus qo'llanilib, ular o'zaro zid qo'yiladi. O'zaro ziddiyatli munosabatda bo'lgan bu strukturalar o'zaro shartlangan bo'lib, biri ikkinchisini taqozo etadi. Chunki gap mazmunining subyektiv elementi uning obyektiv elementi ustiga qo'yiladi, ya'ni obyektiv mazmun bazis, subyektivlik esa uning ustqurmasi hisoblanadi.

Tilshunoslikda modallik deganda, odatda, gap mazmunining obyektiv borliqqa munosabati va so'zlovchining gap mazmuniga bo'lgan munosabati tushuniladi [4; 56]. Shunga ko'ra, mazmuniy sintaksisda gapda ifodalangan mazmunning reallikka bo'lgan munosabatini aks ettiruvchi obyektiv modallik hamda "subyekt", "gap mazmuni" va "obyekt" birligini aks ettiruvchi subyektiv modallik farqlanadi [5; 83-85].

Obyektiv modallik har qanday jumlaning zaruriy elementi hisoblanib, u bilish akti yo'nalgan u yoki bu vaziyatda mavjud bo'ladigan obyektiv aloqalarning xarakterini namoyon etadi. G.A.Zolotova modalikning bunday tipini predikativ modallik deb baholaydi. Uning qayd etishicha, "predikativ modallik jumla mazmunining borliq bilan munosabatini ifodalasa, modallikning subyektiv deb

ataluvchi boshqa turi soʻzlovchining aytilayotgan axborotga nisbatan munosabatini ifodalaydi: soʻzlovchi oʻzi bildirayotgan fikrni tasdiqlashi yoki kirish modal soʻzlar va boshqa vositalar yordamida ushbu maʼlumotning voqelik bilan mos kelish-kelmasligiga javobgarligini pasaytirishi mumkin.... Bunday modallik predikativ modallikka nisbatan ikkilamchi modal qavat hisoblanadi” [2; 96]. Bundan tashqari G.A.Zolotova modallikning xohish-istak, zarurat, mumkinlik kabi modal maʼnolarni qamrab oluvchi uchinchi turini – irreal modallikni ham ajratgani holda, bu maʼnolar jumlaning voqelikka munosabati bilan mos tushmaydigan boshqa modallik planiga tegishli ekanligini taʼkidlaydi.

Tilning modal strukturasi va modusning ifodalanishi xususida fikr yuritir ekan, Z.Yigitaliyeva ham modallikning obyektiv va subyektiv turlarini eʼtirof etib, N.A.Seleznyovanning fikrlariga qoʻshilgan holda, subyektiv modallik, yaʼni “modus modallik ifodalay olmaydigan nutq subyektining propozitsiyaga nisbatan turli koʻrinishdagi munosabatini yuzaga chiqarishini” [3; 14] taʼkidlaydi. Tadqiqotchi aloqa-aralashuv jarayonida belgi va predmet oʻrtasidagi bogʻliqlik darajasi yanada ortishi va bunda belgi nafaqat predmetga, balki kommunikativ vaziyatga ham yoʻnaltirilgan boʻlishi mumkinligi haqida fikr yuritib, bu jarayonda borliqdagi narsa, predmet va hodisalarga taalluqli boʻlgan tafakkurdagi tasavvurlar turlicha assotsiatsiyalanishi, biroq borliq elementlari ongda denotatga xos xususiyatlari bilan saqlangani holda, ular muallifning munosabatlari asosida turlicha guruhlanishini va bular lisoniy vositalar yordamida voqelanib, yaxshi, yomon, neytral parametrlari bilan muallifning munosabatini ifodalashga xizmat qilishini qayd etadi.

Darhaqiqat, Z.Yigitaliyeva taʼkidlaganidek, “tasavvurda axborotning filtrlanishi propozitsiyada modal strukturani shakllantiradi. Koʻrinadiki, tilning modal tarkibi baho kategoriyasi bosqichiga oʻtganida tasavvur bilan bogʻlanib, diktum tarkibidagi munosabatga asoslangan modusni namoyon qiladi” [3; 14] .

“Oʻzbek tilining mazmuniy sintaksisi” mualliflari ham gapning modal aspekti xususida fikr yuritir ekanlar, modallikning gap strukturasi zaruriy uzvi ekanligini taʼkidlagan holda, uning “gapni shakllantirishdagi oʻrni va subyektning gap

mazmunidagi munosabat darajasiga qarab, ikki guruhga – obyektiv va subyektiv modallikka bo‘linishini” [5; 89] e’tirof etadilar. Ularning qayd etishlaricha, “obyektiv modallik gapni shakllantiruvchi zaruriy belgilardan biri, asosiy uzvi hisoblansa, subyektiv modallik obyektiv modallik ustiga qo‘yilgan qo‘shimcha modallikdir. Shuning uchun ham u gapning asosiy uzvi emas” [5; 89]. Shu bilan birga, modallik ma’nosi til sistemasining turli sathlarida kuzatilib, universallik kasb etishi va shunga asosan modallikni ifodalovchi vositalar ham rang-barang bo‘lishi ta’kidlanadi. Modallikning turkiy tillar materiallari asosidagi tahliliga ko‘ra “quyidagi modallik vositalari ajratiladi: mayl, zamon va shaxs qo‘shimchalari, gapning alohida qurilmalari, yuklamalar, so‘z tartibi, intonatsiya, yuklama vazifasidagi so‘roq olmoshlari, undalmalar, kirish so‘z va gaplar” [5; 81]. Ushbu vositalar o‘z funksiyalarini gap tarkibida bajargani bois, ularning sintaktik belgisi muayyan sinflarga birlashishi uchun asos bo‘ladi va sintaktik belgisiga ko‘ra modallikni ifodalovchi vositalar 1) konstruktiv-sintaktik; 2) morfologik-sintaktik; 3) intonatsion-sintaktik kabi sinflarga ajratiladi [5; 82].

Tilshunoslikda modallik kategoriyasi xususida fikr yuritar ekan, K.Umarov ham obyektiv voqelik so‘zlovchi tomonidan baholash tarzida qabul qilinishini ta’kidlagan holda, bu voqelikni o‘z ongida aks ettirib, unga bo‘lgan munosabatini turli semantik kategoriyalar yordamida voqelantirishini bayon qiladi. Uning qayd etishicha, “Jumladagi modallik kategoriyasini anglash uchun propozitsiya, diktum va modus tushunchalarini farqlash zarur bo‘ladi. Propozitsiya – obyektiv holatni aks ettiruvchi o‘zgarmas ma’no. Muayyan jumlada propozitsiya so‘zlovchi tomonidan u yoki bu tarzda talqin qilinadi. Natijada, ifoda ikki tomonlama mazmunga ega bo‘ladi: obyektiv mazmun va uning talqini”. [6]

Demak, gap orqali ifoda etilayotgan obyektiv voqelikning – propozitsiya yoki diktumning so‘zlovchi shaxs, ya’ni subyekt tomonidan talqin qilinishi modusni hosil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Matyakubov O.Q. Qiyosiy tilshunoslikda modallik kategoriyasi: Tadqiq va talqin (Fransuz hamda o‘zbek ertak, naqlari misolida) International scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2024, vol. 10, No 1 (54), pp. 97-116
2. Золотова Г.А. Модальность в системе предикативных категорий. <https://digilib2.phil.muni.cz/flysystem/fedora/pdf/120833.pdf> – С. 96. (murojaat sanasi 16.11.2023.)
3. Йигиталиева З.М. Тилининг модал структураси ва модуснинг ифодаланиши. Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри... (PhD). автореф. – Фарғона, 2021. – Б.14.
4. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 56.
5. Нурмонов А., Маҳмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1992. – Б. 83-85
6. Умаров К. Хоҳиш-истак концепти – модаллик категорияси талқинида // Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 7| 2022. <https://ares.uz/storage/app/uploads/public/62e/3c3/bcb/62e3c3bcbbcaf4046716129.pdf> (murojaat sanasi: 20.11.2023)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14636212>

O'QUVCHILARNING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL QILISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Kenjaeva Sarvinoz Toxir qizi

Nizomiy nomidagi TDPU 1-bosqich magistranti

Insonning bilishi, unda zarur bilimlarning shakllanish va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish tarixi pedagogika fanida uzoq tarixga borib taqaladi. Xususan, antik davr faylasuflari Demokrit, Suqrot, Aflotun, Arastu, jumladan Sharq va G'arb mutafakkirlari bilish faoliyatiga katta qiziqish bilan qarashgan. Arastuning e'tiroficha, inson tabiatan bilimga tashna, oqilona qiziquvchanlik va bilimga muhtalolik insoniyat erishgan yutuqlarning asosi hisoblanadi. Olim uchun yashashning maqsadi ham, vositasi ham aynan bilish bo'lib, insonning insonligi uning ongi faoliyati bilan chambarchas bog'liq, bilish esa ana shu faoliyat maqsadi sifatida asl insonni yaratadi [5,83-b.]..

Forobiy ta'lim - tarbiyada ragbatlantirish, odatlantirish, majbur etish metodlarini ilgari surgan. Olim bolalarni mustaqil ishlashga o'rgatish usuli pirovardda uni har tomonlama kamolga yetkazish maqsadini ko'zlashini ta'kidlaydi [5,85-b.]..

O'quvchilarning o'quv faoliyatini rivojlantirishning asosiy tarkibiy qismlaridan biri –bu ularning mustaqil ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish bilan chambarchas bog'liq.

Pedagogik, ilmiy-uslubiy adabiyotlarda mustaqil ishlar tashkiliy, didaktik, psixologik va boshqa belgilar asosida tavsiflanadi. A.N. Zimnyaya tomonidan mustaqil ishga berilgan ta'rifga ko'ra, "mustaqil ish –maqsadga yo'nalgan, ichki motivga asoslangan o'quvchining barcha harakat va jarayonlarining majmuidir. Bunda o'quvchida anglash, mustaqil fikrlash, mustaqil tartib, shaxsiy javobgarlik

hislari shakllanadi va mustaqil rivojlanish, takomillashish hamda tushuna bilish jarayonlari o'quvchiga huzur-xalovat ato etadi [1;47].

J.Hasonboev, X.To'raqulovlar mustaqil ishni "...olingan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, qo'shimcha ma'lumot yoki materialni mustaqil o'rganish maqsadidagi o'quv shakli" sifatida izohlashgan [4;63].

Professor S.Matjonov o'quvchilarning mustaqil ishlari og'zaki va yozma nutqi, ijodiy tafakkurini rivojlantiradi. Mustaqil tafakkur, o'z nuqtai nazariga ega bo'lmagan o'quvchi ijodkor bo'la olmaydi, mustaqil faoliyat yurit olmaydi.

Pedagogik manbalarda o'quvchilarning mustaqil ishlariga ularni rivojlantirishning muhim asoslaridan biri sifatida qaraladi. O'quvchilarning mustaqil faoliyatini rivojlantirish masalasi K.D.Ushinskiyning pedagogik tizimida markaziy o'rinni egallaydi. Mustaqil ish - o'quvchilarning o'qituvchining ko'rsatmalari va uslubiy rahbarligi bilan, lekin uning bevosita ishtirokisiz bajariladigan rejali faoliyati hisoblanadi [3;79].

Demak, mustaqil ish — o'qituvchining topshirig'i va uning rahbarligida o'quv vazifasini hal qiladigan ta'limning faol metodi. Mustaqil ishlar mashg'ulotda qo'yilgan maqsad bilan bog'liqlikda o'quvchilarning aniq faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishdir. O'quvchining mustaqil ishi uning yuqori darajadagi faollik, ijodiylik, mustaqil tahlil, tashabbuskorlikka, barcha o'quv-biluv vazifalarni o'z vaqtida va mukammal tarzda bajarishga asoslangan faoliyatidir.

Ko'rinib turibdiki, mustaqil ish zarur bilim, ko'nikma va malakalarni samarali o'zlashtirish vositasi bo'lib, u:

- alohida olingan har bir aniq o'quv vaziyatida aniq didaktik maqsad va vazifaga mos keladi;
- o'quvchi har bir faoliyatida zarur bilim hajmi va darajasini shakllantiradi;
- bilish muammolariga mos tarzda intellektual faoliyat ko'nikma va qobiliyatlari;
- ta'lim subyektlari o'zaro kognitiv-psixologik munosabatni shakllantiradi

- o'quvchilar bilimini mustaqil tarzda tizimli ravishda to'ldirish hamda kognitiv muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi;

- o'quvchining o'quv jarayonida bilish faoliyatini pedagogik yo'l-yo'riq va boshqarishning eng muhim vositasidir [2,31-b.].

O'quvchilarning mustaqil ishlari faoliyat sifatida ko'p qirrali, ko'p funktsiyali, nafaqat ilmiy, balki shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga molik hodisadir. Mustaqil ish o'quvchi tomonidan ichki kognitiv motivlar tufayli, o'z nuqtai nazari bo'yicha eng qulay, oqilona vaqtda tashkil etilgan, jarayon natijasida nazorat qilinadigan faoliyat sanaladi.

O'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish metodikasi o'rganilayotgan fanning tuzilishi, tabiati va xususiyatlariga, uni o'rganishga sarflangan soatlar miqdoriga va topshiriqlar turiga bog'liq. o'quvchirning mustaqil ishi, o'quvchirning individual fazilatlari va o'quv faoliyati shartlari uchun. O'quvchirning mustaqil ishini tashkil etish jarayoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- tayyorgarlik (maqsadlarni aniqlash, dastur tuzish, uslubiy yordam tayyorlash, jihozlarni tayyorlash);

- asosiy - dasturni amalga oshirish, ma'lumotni qidirish, o'zlashtirish, qayta ishlash, qo'llash, bilimlarni uzatish, natijalarni qayd etish, ish jarayonini o'z-o'zini tashkil qilish uchun texnikadan foydalanish;

- yakuniy natijalarning ahamiyati va tahlilini baholash, ularni tizimlashtirish.

Mustaqil ishlar o'tilgan mavzu yuzasidan bilimlarni tekshirishning samarali yo'lidir. O'qituvchi o'quvchilar o'tilgan mavzu materialini qay darajada o'zlashtirganliklarini nazorat qiladi. Maktab ta'limida fanlardan mustaqil ishning bir qator quyidagi shakllari o'zaro farqlanadi:

kundalik faoliyati yuzasidan hisobot tayyorlash;

-mashq bajarish;

-sinovlarni o'tkazish;

-insho yoki bayon yozish;

test tayyorlash yoki bajarish.

Sanab o‘tilgan mustaqil ishlar bevosita mashg‘ulot yoki undan tashqari vaqtda o‘tkaziladi. Odatda mustaqil ishlarning bajarish vaqti o‘qituvchi tomonidan belgilab beriladi. Uyda mustaqil ish topshirilganda, o‘quvchi vaqt bilan cheklanmaydi, lekin bunda ham umumiy bir chegara qo‘yiladi.

Sinfda mustaqil ishlarni tashkil etishga quyidagi talablar qo‘yiladi:

- aniq maqsad va o‘quvchi unga qanday erishishni bilishi kerak.
- o‘quvchining o‘rganish imkoniyatlariga mos bo‘lishi, soddadan murakkabga qarab murakkablikka o‘tish.
- o‘quvchining bilim qobiliyatini, tashabbuskorligini va ijodkorligini rivojlantirishdir.

Mustaqil ishlar yuzasidan o‘quv topshiriqlari uslubiga ko‘ra kuzatish, mashq qilish, darslik matni bilan ishlash kabi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi.

O‘quvchilarning mustaqil ishlari asosida ta’lim jarayonini tashkil etishning ikkita asosiy yo‘nalish o‘zaro farqlanadi: 1. Mashg‘ulotlarda mustaqil ishlarning ahamiyatini oshirish. Bunda o‘qituvchidan sinf mashg‘ulotlarini tashkil etishda o‘quvchilarning yuqori darajadagi mustaqilligi va tayyorgarligi sifatini ta’minlaydigan metodika va shakllarni ishlab chiqishni taqozo etadi. 2. O‘quvchilarning sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda mustaqil ishlardagi faolliklarini oshirish.

Zamonaviy ta’lim jarayoni bu o‘quvchilarga faqat bilim berish, ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, egallangan bilimlardan foydalanish bo‘yicha zarur ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat bo‘lmay, balki ularga mustaqil bilimlarni qidirib topish, o‘zlashtirish shakllari, usullari, vositalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishni o‘rgatishni taqozo qiladi. Maktab o‘quvchilarida mustaqil bilimlarini davr talabiga moslashtirish, ma’lumotlar oqimidan kerakligini ajratib olish va ma’lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish qobiliyatlarini shakllantirish, sifatli kadrlar tayyorlash jarayonining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Зимняя И.А. Основа педагогической психологии. – М.: 1980. – С. 180.
2. Пидкасистий. П.И. Педагогика: Учебное пособие для учащихся пед. вузов и пед. колледжей /Под ред. П.И.Пидкасистого. - М., 1995. - 93 с.
3. Ушинский Константин Дмитриевич // Российская педагогическая энциклопедия. В 2 т. Т. 2. – М., 1999.
4. Ҳасонбоев Ж.,Тўракулов Х.ва бошқалар. Педагогика фанидан изоҳли луғат. – Т.: «Фан ва технологиялар», 2009. -355-б.
5. Хошимов К. Педагогика тарихи (дарслик) Муаллифлар: К.Хошимов С.Нишонова.Т:2005 83-87-бб.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14636222>

YANGI TAHRIRDAGI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINING JAMIYATDA O‘RNI VA AHAMIYATI

Hafizova Shahina Shermat qizi

Renessans ta’lim universiteti Filologiya va tarix fakulteti

Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi

2-kurs 37-23-guruh talabasi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada muallif tomonidan Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi faoliyati jamiyatimizda o‘rni va ahamiyati qanday ekanligini mamalakatimizda, jamiyatimizda hamda xalq orasida tutgan o‘rni va faoliyatni amalga oshirayotgan davlat muassasalari, siyosiy partiyalari, kasaba uyushmalari va shu kabi organlarning Konstitutsiyadagi vazifalariga oid normalar to‘g‘risida asoslantirilgan ma’lumotlar berilib, ushbu mavzuga oid taklif va xulosalar berildi. Muallif ishonadiki, ushbu ma’lumotlar mutolaachi hamda qiziquvchilarga oz bo‘lsada foydali bo‘ladi hamda ularda Konstitutsiyamiz haqida o‘zgacha fikr va mulohazalar uyg‘otadi.*

***Kalit so‘zlar:** Konstitutsiya, jamiyat, huquqiy davlat, hokimiyat, inson qadri, yangi konstitutsiya*

Kirish

Barchamizga ma’lumki joriy yilda amaldagi Konstitutsiya kuchga kirganidan buyon birinchi marta unga mamalakatning uzoq o‘n yilliklardagi taraqqiyotini belgilab beruvchi o‘zgartirishlar kiritildi. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi joriy etilishi keng muhokamalar hamda fuqorolarning erkin ovozi yani referendum oraqali o‘zgartirildi. 2023-yilda ko‘plab yurtdoshlarimiz asosiy

qomusimizning mazmun-mohiyatiga murojaat qilib, O'zbekiston jamiyatining zamonaviy poydevorini shakllantirishda faol, mas'uliyatli ishtirok etishdi. Ayni shu tartibdi 2023-yilning 30-aprelida referendum bo'lib o'tdi va 1-mayda joriy qilindi.

Asosiy qism

O'zbekistonning demokratik, huquqiy, ijtimoiy davlat sifatida yanada rivojlanishiga yaxshigina turtki bo'ldi. Bugungi kunda bizning qomusimiz hisoblangan bu Konstitutsiya har bir fuqarolarni huquqlarini yanada himoya qilishni jamiyatda o'rnini bilish uchun hizmat qilib kelmoqda.

Yangi konstitutsiyaning fuqorolarimiz uchun har taraflama manfaatli ekanligini ko'rsatuvchi uchta asosiy ko'rsatkichlari:

~*Birinchi*dan. Har bir O'zbekiston fuqarosi o'z fikrlari, istaklari va mulohazalarini bildirish imkoniyatiga ega. Fuqorolar hayotidan, to'plangan tajribadan kelib chiqqan barcha g'oya va takliflar inobatga olindi. Shu ma'noda, Asosiy qonun hozirgi tahririda davlat va jamiyatning birgalikdagi sa'y-harakatlari samarasidir. O'ylaymanki bu hujjat fuqorolarning faol ishtiroki va bevosita bergan ovozlari orqali qabul qilindi.

~*Ikkinchi*dan. O'zgartirishlar nafaqat qonuniy xususiyatiga ega. Qabul qilingan o'zgartirishlar o'zining butun ma'nosi bilan davlat hokimiyati organlari faoliyatining markazida shaxs turishini belgilab berdi. Davlatimizning eng oliy maqsadi:

“Mamlakatimizning nafaqat faravonlik va farovonlikda yashashga, balki o'zining qobilyatini, kasbini to'liq ro'yobga chiqarishga imkon beradigan sharoitlarni yaratishdir.”

Bu o'zgarishlarni qabul qilib, odamlar o'z tarixi, madaniyati, an'analari, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini, bir so'z bilan aytganda, milliy o'zligimizga asos bo'lgan barcha narsani qadrlashini va bularning barchasi O'zbekiston Respublikasining Asosiy qonunida mustahkamlanishi yaqqol ko'rsatilgan.

~*Uchinchi*dan. Tuzatishlar davlat tizimidagi vakolatlarining konfiguratsiyasi va taqsimlanishini o'zgartiradi. Ular O'zbekiston Respublikasi Oliy kengashi va davlat hokimiyati organlarini shakllantirishdagi rolini oshirdi, palatalarning ijro hokimiyati

tuzilmalari faoliyatiga ta'sirini kuchaytiradi, parlament nazorati institutini mustahkamlaydi.

Konstitutsiyamizning o'zgartirilishi jamiyatimiz uchun muhurligi shundaki inson o'z shani qadr-qimmatini bilishini uni anglashi uchun uni himoya qilishni o'rganishi lozim bunda Konstitutsiyaning roli kattadir. Shuni takidlash mumkinki jamiyatning ko'plab qismlari o'z huquqlarini bilishmiydi bu nega deb o'laysiz?

Bunga asosiy sabab jamiyatning huquqiy ongining rivojlanmagani va Konstitutsiyadan foydalana olishmasliklaridadir. Konstitutsiyamizning yangilanishi bu albatta yaxshi chunki unda ko'plab davlat uchun fuqorolar uchun va ayniqsa o'qtuvchilarning huquqlarni himoya qilish aniqrog'i moddalari qo'shilishi manfaatli bo'ldi. Jamiyat qachonki o'z shaxsiy fikrini ommaga malum qilsagina nimadir erishisha oladi va uni orqaga tortayotgan jamiyatdan ajralib chiqishi mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki bugungi kunda davlat xalq uchun xizmat qilib kelmoqda har taraflama. O'qishda, tadbirkorlikda va hatto yashashi uchun ham sharoit yaratib bermoqda. Bunda Konstitutsiyaning roli beqiyosdir. O'zimizga ma'lumki bizning yozilgan va yozilmagan qonunlarimiz mavjud. Bulardan deyarli 80% yozilmagan qonunlardir. Negaki jamiyat bir xil o'ylashi shuni ko'rsatadi yozilgan qonunlar bu Konstitutsiya, kodeklar, qonunlar va shu kabilardir. Yozilmagan qonunlar esa bundan mustasno yani ahloq qoidalaridir.

Jamiyat hayotida Konstitutsiyamizning o'rni bo'lishi bu yutuqdir bu tartib intizomdir. Chunki qoidalar fuqorolar uchun ham tabiat uchun ham eng muhim himoyat vositasidir. Jamiyatning, fuqorolarning, tabiatning va eng muhumi davlatning asosiy ximoyasi bu - Konstitutsiyadir.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14636227>

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СЛОВАРНОГО ЗАПАСА УЧЕНИКОВ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА

Саматов Хайрулла Абдуназарович

Учитель русского языка школы №52 Касбинского района
Кашкадарьинской области

***Аннотация:** В данной статье рассматривается проблема развития речи учащихся на уроках русского языка, укрепление их речевых навыков и совершенствование умений точно, эмоционально и образно передать свои мысли, чувства, волеизъявления. Автор приходит к выводу, что обогащение словарного запаса учащихся происходит благодаря проведению словарной работы, использованию различных наглядных материалов, внедрению занимательных форм обучения, а также чтению литературы, прослушиванию речи учителя и сверстников, общению со взрослыми, просмотру телепередач, прослушиванию радио и другим источникам.*

***Ключевые слова:** виды наглядности, межпредметный материал, двуязычие, национальная школа, речевая культура, словарный запас*

ENRICHING THE VOCABULARY OF STUDENTS IN RUSSIAN LANGUAGE LESSONS

***Abstract:** This article examines the problem of developing students' speech in Russian language lessons, strengthening their speech skills and improving their skills to accurately, emotionally and figuratively convey their thoughts, feelings, and will. The author comes to the conclusion that the sources of replenishment of*

the vocabulary of students are vocabulary work, various types of visualizations, entertaining forms of learning, as well as reading books, newspapers, speech by a teacher, peers, adults, listening to the radio, watching TV shows.

Keywords: *speech culture, vocabulary, types of visualizations, interdisciplinary material, bilingualism, national school.*

Речевая культура играет ключевую роль в формировании активной личности в социальном контексте. Ограниченность словаря, бедность конструкций речи и использование слов с однозначным значением — это те проблемы, с которыми сталкиваются преподаватели. Именно в процессе обучения русскому языку и литературе развиваются навыки правильной, точной и богатой устной и письменной речи.

Слово является основным элементом языка. Оно не только передает разнообразные значения, но и служит основным инструментом для общения. Словарный запас языка чрезвычайно велик, однако люди используют лишь его часть. Очевидно, что чем богаче словарный запас, тем точнее, ярче и выразительнее становится речь, и тем легче достичь поставленной цели в процессе общения. Слово, как центральная единица языка, играет огромную роль в восприятии мира. Вместе со словом человек обретает знания, развивается его мышление, а также поддерживается коммуникация с окружающими, говорящими на том же языке.

Одной из ключевых задач преподавания русского языка является развитие речи учащихся, укрепление их речевых навыков и совершенствование умений точно, эмоционально и образно выражать свои мысли, чувства и волю. Эта цель достигается через все занятия по русскому языку.

Мощным источником для расширения словарного запаса на уроках русского языка служит межпредметный учебно-дидактический материал, который делится на неконтекстный и контекстный. В первом случае используются отдельные слова, тематические группы слов, словосочетания или

предложения, отражающие содержание других предметов, во втором — тексты, содержащие сведения из различных областей знаний. Межпредметный материал на уроках русского языка применяется в качестве текстов для упражнений, которые помогают закрепить изучаемые языковые или речевые явления. Он также позволяет учителю продемонстрировать, как язык отражает все аспекты окружающей жизни и является наиболее эффективным средством общения, передачи и сохранения информации, а также выражения чувств и переживаний.

Источники пополнения словаря учащихся можно разделить на несколько групп в зависимости от того, как воспринимаются слова. Это включает: восприятие зрительное (чтение книг, учебников, газет и журналов); восприятие на слух (речь преподавателя, сверстников, взрослых, слушание радио, просмотр телепередач, кинофильмов, театральных представлений); восприятие одновременно зрительное и на слух (просмотр диафильмов, кинофрагментов с титрами, посещение музеев и выставок).

Одним из ключевых факторов в процессе обогащения словарного запаса учащихся является развитие у них интереса к овладению словом и пополнению своего личного словаря. Сформировав у учащихся интерес к урокам русского языка, можно более эффективно решать задачи расширения их словарного запаса, в том числе развивать внимание к незнакомым словам в тексте, будь то услышанном или прочитанном. Отсутствие интереса к незнакомым словам и невнимание к ним — одна из причин, мешающих обогащению словаря. Часто это приводит к неправильному пониманию текста, когда учащиеся, пересказывая его, игнорируют или неправильно интерпретируют незнакомые слова.

Глубокое понимание значений слов и правильного их использования достигается через словарную работу. Особенность этой работы заключается в том, что она проводится на протяжении всей учебно-воспитательной деятельности учителя. Для эффективного обогащения словаря учащихся важно планировать на каждом уроке работу с 5-6 новыми словами и их значениями, а также уделять внимание многозначности, оттенкам значений, эмоциональной

окраске, сочетаемости и особенностям употребления этих слов. Преподаватель должен направлять процесс усвоения новых слов, чтобы он не происходил случайно, а был организованным и осознанным, что способствует правильному и полному усвоению материала.

Обучение русскому языку в национальных школах является важной частью формирования двуязычия у учащихся. В связи с этим в системе преподавания русского языка ключевую роль играет принцип учета родного языка, который тесно связан с принципом сознательной коммуникативности и словообразования.

Успешная реализация принципов обучения русскому языку в национальной школе возможна только при условии, что в процессе обучения будет в полной мере соблюдаться основное требование овладения языком — обогащение словарного запаса, а также обеспечение наглядного представления как звучащей, так и письменной речи. Таким образом, в систему ключевых принципов обучения русскому языку, помимо принципов обогащения словарного запаса, сознательной коммуникативности и учета родного языка, необходимо включить принцип наглядности.

При обучении русскому языку эффективно могут использоваться различные виды наглядности, а именно:

аудитивная: речь преподавателя, речь мастера слов, звучащая речь по радио, по монитору, телевидению, аудиозапись;

ситуативная: наглядное представление обстоятельств, при которых происходит общение. Может быть вербальной или создаваться с помощью различных рисунков, электронных грамматических слайдов, видео и т.п.

изобразительная: художественно-изобразительная (репродукции, рисунки, иллюстрации, фотографии, скульптура, макет, видеослайды для проектора, видеофильмы, мультфильмы) и символическая, или условная (таблицы, логико-структурные схемы, схематические рисунки, графические модели, печатный текст);

натуральная: жесты, мимика.

Активно используется учителями-русистами и такой вид комплексной наглядности, как карточки, различные их виды: карточки с рисунками, фотографиями, карточки-схемы, таблицы (особенно ценные при повторении, обобщении материала); карточки-задания (письменные и устные); карточки с занимательным материалом (пословицами и поговорками, стихотворениями, загадками и т.д.). Карточки позволяют учителю экономить время, разнообразить формы работы, охватывать работой всех учащихся, дифференцируя задания. Существенную помощь в подготовке этого вида раздаточного материала, довольно трудоемкого, учителю могут оказать учащиеся, и в первую очередь те из них, кто овладевает навыками машинописи.

К интересным формам обучения русскому языку и проработки изучаемого материала относятся нестандартные задания, такие как сказки-загадки, юморески, словесные игры-загадки, шарады, ребусы, кроссворды и различные игровые задания с элементами соревновательности, а также ролевые игры. Все эти методы, обогащая словарный запас учащихся, могут быть эффективно использованы на разных этапах обучения.

При обучении русской лексике учащихся национальных школ важной проблемой является понимание лексического значения слова, так как от этого зависит и его правильное понимание, и адекватное использование в речи. В процессе словарной работы особое внимание уделяется качественному обогащению словарного запаса учащихся. Работа ведется не только по усвоению одного значения слова, но и по освоению его других значений — как прямых, так и переносных. Учащиеся должны познакомиться с особенностями многозначных слов, что важно для их правильного использования и употребления в речи.

Литература

1. Баранов М.Т. Методика преподавания русского языка / М.Т. Баранов, Т.А. Ладыженская. - М.: Просвещение, 2013. - 368 с.
2. Богуславская Н.Е., Капинос В.И. Методика развития речи на уроках русского языка: Кн. для учителя / Н.Е. Богуславская, В.И. Капинос, А.Ю. Купалова. - М.: Просвещение, 2013. - 240 с.
3. Эргашева Д. Методика применения игровых технологий на уроках русского языка //Current approaches and new research in modern sciences. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 77-81.
4. Saidova M. R. et al. Differentiated instruction, project-based learning, constructivist pedagogy principles //International Journal on Integrated Education. – 2019. – Т. 2. – №. 6. – С. 209-212.
5. Kamilovna E. D. THE METHODOLOGY OF USING GAME TECHNOLOGIES IN RUSSIAN LANGUAGE LESSONS //Miasto Przyszłości. – 2024. – Т. 44. – С. 90-92.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14636233>

YOSH BASKETBOLCHILARDA MAXSUS TEZKORLIK SIFATINI HARAKATLI O‘YINLAR YORDAMIDA RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI

M.A.Umbetova

Voleybol, basketbol nazariyasi va uslubiyati kafedrası katta o‘qituvchisi
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti O‘zbekiston, Chirchiq shahri

ANNOTATSIYA

Yosh basketbolchilarni maxsus tezkorligini harakatli o‘yinlar yordamida rivojlantirish samaradorligini tadqiqot asosida o‘rganilgan bo‘lib, maxsus tezkorligini rivojlantirish uchun, mos yondashtiruvchi mashqlar hamda harakatli o‘yinlar majmualarini ishlab chiqqan va ularning samaradorligini pedagogik tajriba asosida isbotlab bergan.

Kalit so‘zi: *Basketbolchi, tezkorlik, harakatli o‘yin, mashq, test, texnik-taktik, soniya, yugurish.*

EFFICIENCY OF DEVELOPING THE QUALITY OF SPECIAL SPEED IN YOUNG BASKETBALL PLAYERS USING OUTDOOR GAMES

Umbetova M.A

Senior Lecturer at the Department of Theory and Methodology of Volleyball and
Basketball, Uzbekistan State University of Physical Culture and Sport,
Uzbekistan Chirchik

ABSTRACT

Based on the research, the effectiveness of developing special speed in young basketball players using outdoor games was studied, and for the development of special speed, he developed a set of appropriate exercises and outdoor games and proved their effectiveness based on pedagogical research.

Key word: *Basketball player, speed, active games, exercise, test, technical and tactical, seconds, running.*

Yosh avlodni jismoniy baquvvat qilib tarbiyalashga imkon beradigan, ularning jismoniy sifatlarini rivojlantirishiga qaratilgan jismoniy madaniyatini milliy lashtirishiga, bunda xalqimizning unitilib borayotgan milliy o'yinlarini to'plash, hayotga-maktabga tadbiq etish, rivojlantirish yo'llari va usullarini qayta ko'rib chiqish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Yosh sportchilarning jismoniy imkoniyati, jumladan maxsus tezkorlik sifatini rivojlanganlik darajasini va samarali harakatli o'yinlar yordamida shu sifatni maqsadga muvofiq rivojlantirish samaradorligini ishlab chiqishga qaratilgan.

Ishning maqsadi va vazifalari. Basketbolga dastlabki o'rgatishda maxsus tezkorlik sifatini harakatli o'yinlar yordamida rivojlantirish samaradorligini aniqlashdan iborat.

Ushbu maqsad quyidagi vazifalar asosida amalga oshirildi:

1. Yosh basketbolchilarni tayyorlashda harakatli o'yinlaridan foydalanish darajasini o'rganish;
2. Yosh basketbolchilarni dastlabki o'rgatishda maxsus tezkorlik sifatini harakatli o'yinlar yordamida rivojlantirish samaradorligini aniqlash;
3. O'tkazilgan tatqitot natijalari asosida uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish va ularni yosh basketbolchilar amaliyotiga tadbiq qilish.

Ushbu ishda bu masalaga ham urg'u berilgan. Jumladan, maxsus tezkorlik sifatini baholovchi qator testlarning harakatli o'yinlar yordamida rivojlantirish samaradorligini o'z ifodasini topgan.

Harakatli o'yinlar turli qiyinchiliklarni engish va har xil fazilat va qobiliyatlarni ko'rsatishga doir jismoniy mashqlarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari odatda bolalarga quvonch bag'ishlaydigan musobaqalar ham harakatli o'yinlar jumlasiga kiradi.

Harakatli o'yinlar yurish, yugurish, sakrash, biror narsani irg'itish yoki uloqtirish, biror narsaga tirmashib chiqish kabi mashqlarni o'z ichiga oladi va bolaning harakatlarini takomillashtiradi. Bundan tashqari o'yinlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy sifatlarini ham rivojlantiradi. Bularga intizomlilik, do'stlik, bir-biriga bo'lgan munosabat, onglilik, jamoada o'zini tuta bilish va uning shartlari, diqqatini, obro'si uchun kurash, o'rtoqlariga beg'araz yordam berish kabi fazilatlarni

ham shakllantiradi. Masalan; «Ikki ayoz», «Epchil bolalar», «Quvlashmashoq», «Kim keldi» va hokozolar.

4. A.S.Sag'dullayev-O'zbekiston tarixi Birinchi kitob, Toshkent, "Donishmand ziyosi", 2021.
5. Karim Shoniyozov "O'zbek xalqining shakllanish jarayoni". T, "Sharq", 2001.
6. Berdiyeva, S. (2024). IMPROVING THE METHODOLOGY OF PREPARING STUDENTS FOR CREATIVE ACTIVITY BASED ON FOREIGN EXPERIENCES. Talqin va tadqiqotlar, (28).

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14636285>

OILADA TARBIYA ASOSINING AHAMIYATI

Berdiyeva Sadoqat Eshonqul qizi

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi

Dustmirzayeva Flyura Shuxrat qizi

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya. Maqolada “Oilada tarbiya asoslari” tushunchasi, farzand shakllanishida oila a’zolarining o’rni va ahamiyati, farzandni mustaqil shaxs sifatida tarbiyalash hamda oila tarbiyasida diniy qarashlar mavzusi yoritib berilgan.

Tayanch so’zlar: Oila, oilaviy muhit, farzand tarbiyasi, tarbiya turlari, nazorat, oilada ota-ona munosabati, Oila tarbiyasi.

ЗНАЧЕНИЕ ОСНОВ ВОСПИТАНИЯ В СЕМЬЕ

Бердиева Садоқат Эшонқул қизи

Преподаватель Университета экономики и педагогики

Дустмирзаева Флюра Шухрат қизи

Студент экономико-педагогического университета

Аннотация. В данной статье раскрывается понятие «Основы семейного воспитания», роль и значение членов семьи в формировании ребенка, тема воспитания ребенка как самостоятельной личности и религиозные взгляды в семейном воспитании.

Ключевые слова: Семья, семейная среда, воспитание детей, типы воспитания, контроль, родительские отношения в семье, Семейное воспитание.

THE IMPORTANCE OF THE BASIS OF EDUCATION IN THE FAMILY

Berdiyeva Sadoqat Eshonqul qizi

Lecturer at the University of Economics and Pedagogy

Dustmirzayeva Flyura Shuxrat qizi

Student of the University of Economics and pedagogy

***Abstract.** In this article, the concept of "Fundamentals of family education", the role and importance of family members in the formation of a child, the topic of raising a child as an independent person and religious views in family education are explained.*

***Key words:** Family, family environment, child rearing, types of rearing, control, parental relationship in the family, Family rearing.*

Dunyoda hamma narsa juft-juft yaratilgan: oy va quyosh, kecha va kunduz, yer va osmon, erkak va ayol, musbat va manfiy va hokazo. Mavjudotlar hayotda mana shu juftlik bilangina barqaror bladilar. Inson oilada tugʻilib, ulgʻayadi, shaxs sifatida shakllanadi.(1)

Ajdodlarimiz Yusuf Xos Hojibning “ Qutadgʻu bilik”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Alisher Navoiyning “Mahbub-ul qulub ” Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yohud ahloq” kabi qimmatli asarlari asosida oʻz maʼnaviy – axloqiy hayotlarini qurishgan, shu asarlarga asoslanib farzand tarbiyalashgan. Yoshlarning qalbi va ongida sogʻlom hayot tarzi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuygʻusini shakllantirishda, har jihatdan barkamol etib tarbiyalashda buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosi katta ahamiyat kasb etadi. Zero, hayotning asl mazmun-mohiyatini anglab yetishga oʻz umri va salohiyatini bagʻishlagan allomalarimizning asarlarida sogʻlom avlod tarbiyasi bilan bogʻliq masalalarga alohida oʻrin berilgan. Sharq mutafakkirlari Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Maxmud Qoshgʻariy, Kaykovuslarning gʻoyaviy jihatdan

birlashtirgan asos shu bo'lganki ular shaxs tarbiyasi va kamolotida oilaning, oilaviy tarbiyaning rolini yuqori qo'yishgan, ayniqsa, shaxsning aqliy va ahloqiy kamolotida oilaning o'rni, ota-ona va yaqin kishilarning yo'naltiruvchi va tarbiyalovchi vazifalariga alohida e'tibor berganlar. Zardushtiylikning qadimiy kitobi "Avesto"da ham oila muqaddas dargoh ekanligi, oila barqarorligida er va xotinning teng mas'ulligi, farzand tarbiyasi to'g'risidagi fikrlar bayon etilgan.

Oila-yosh avlodning har tomonlama rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Oila tarbiyasida doimiy tarbiyaviy ta'sirchan kuch — oilada ruhiy xotirjamlik, samimiy munosabat, ota-ona obro'sining yuqori bo'lishi, bolalarga talab qo'yishda oila kattalari o'rtasidagi birlikning saqlanishi, bola shaxsini mehnatga tarbiyalashga alohida e'tibor berish, bolani sevish va izzatini joyiga qo'yish, oilada qat'iy rejim va kun tartibini o'rnatish, bolaning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, boladagi o'zgarishlarni kuzatib borish, undagi mustaqillikka intilish va tashabbuskorlik sifatlarini qo'llab-quvvatlash asosiy jihatdir. Oila qanchalik tartibli, uning a'zolari o'rtasidagi munosabat samimiy bo'lsa, oila tarbiyasi ham shunchalik muvaffaqiyatli bo'ladi. Oila tarbiyasida ota-ona obro'si, ularning kuzatuvchanligi, sezgirligi, hozirjavobligi muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Oila tarbiyasida tarbiya jarayoni zerikarli, quruq nasihatgo'ylikdan iborat bo'lib qolmasligi lozim. Bola hayotining ko'p qismi oilada o'tadi. Shu boisdan mavjud an'analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar va marosimlarning ijobiy ta'sirida bola asta-sekin kamol topib boradi. An'ana va marosim Oila tarbiyasining qudratli qurolidir. Oila tarbiyasi ijtimoiy tarbiya bilan uzviy aloqada bo'lsagina, kutilgan natijalarga erishish mumkin. Oila tarbiyasida yutuqlarga erishish ota-onalarning pedagogik bilimlarga egaligi, oila tarbiyasi bo'yicha tajribalar almashishi, ota-onalarni tarbiyaviy ishlarga qizg'in jalb qilishga ham bog'liqdir. Har bir ota-ona oila tarbiyasida o'zlarining burch va mas'uliyatlarini chuqur anglashlari lozim. Normal oilaviy muhit, bolani kitob o'qishga, mehnat qilishga o'z vaqtida jalb etish ham Oila tarbiyasining muvaffaqiyati garovidir.

Oila tarbiyasining barcha turlarida - munosabat eng asosiy poydevor vazifasini bajaradi. Oilaviy munosabatlar farzandlarning aqliy, ruhiy kamolotini ta'minlab,

otaonalarda o'ziga xos faollikni ham yuzaga keltiradi. Xusan farzandlarning bevosita ta'siri tufayli ularning qiziqish hamda faoliyatlari doirasi kengayadi. O'zaro aloqalari mazmuni boyib boradi. Real hayot mohiyatini chuqur anglash ya'ni farzandlar kamoloti kelajagi timsolida o'z umri davomiyligi farovonligini qurish holati ro'y beradi. Oila a'zolarining ma'naviy sifatlarga ega bolishi, unda ma'naviy bilimlarni egallashga nisbatan ehtiyoj va qiziqishning paydo bolishida oila tarbiyasi asosiy vazifani bajaradi, Oilada qaror topgan sog'lom ma'naviy-ruhiy muhit farzandlarning yetuk barkamol bo'lib voyaga yetishi uchun beqiyos ahamiyatga egadir.

Farzand oilaning jamiyatning yuzi. Farzandning tarbiyasi, axloqi, dunyoqarashi go'zal bo'lsa, undan aqlli, mehribon, mustaqil - ona, ishbilarmon, jasur, qo'rqmas, vijdonli - ota, muhimi, iymonli, yetuk insonlar yetishib chiqadi. O'z-o'zidan ma'lumki, bunday insonlar ma'naviyatli, madaniyatli jamiyatini yuzaga keltiradi va barchaga o'rnak bo'ladi. Shunday ekan, farzand ota-onaning biznes loyihasi bolishi kerak emas. Farzand bu dunyoga umidlarimiz ushalishini ta'minlash va bizning qoidalarimiz boyicha yashash uchun kelmaydi. Uning ham hayotda o'zining vazifalari bo'ladi. Shu ma'noda, farzand - bu bizning faqatgina davomchimiz emas, balki mustaqil shaxs hamdir. Bolaga alohida shaxs sifatida qarab, unga ishonch bildirish, mustaqil qo'yish mihimdir.(2)

Oiladagi muhit ota-ona o'z mas'uliyatlarini his qilishi bilan barqaror bo'ladi. Bolalarning odobli bo'lib ulg'ayishi uchun ota-ona bilan bir qatorda mahalla-kuy ham katta ibrat maktabidir. "Qush uyasida ko'rganini qiladi", deb bejiz aytmagan xalqimiz. Farzand tarbiyalayotgan ota-ona har bir harakati, yurish turishi, muomalasi, boshqalar bilan o'zaro munosabatida olijanob fazilatlarni namoyon eta bilishi kerak. Chunki bola tabiatan nihoyatda taqlidchan va kuzatuvchan bo'ladi. Shuning uchun uning atrofdagilari o'z odatlari bilan ba'zan o'zlari sezmaganda holda ularga ta'sir qiladilar. Oiladagi qo'pol munosabatlar, ko'p yolg'on gapirish, yoqimsiz xatti-harakat bola tarbiyasiga salbiy ta'sir qiladigan nosog'lom muhitni keltiribchiqaradi(3).

Farzand tarbiyasida ota-onaning muomalasi muhim o'rin tutadi. Bola ota-ona tomonidan qo'pol, dag'al so'zlar eshitib, kaltak yeb katta bo'lsa, bu uning tabiatiga

salbiy ta'sir qiladi. Bu esa o'z navbatida oiladagi nosog'lom muhitda tarbiyalanayotgan boladan "ma'naviy kasal" insonlar shakllanadi. Ular esa jamiyat ma'naviyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Oilada ota-onalar "ommaviy madaniyat" ta'siriga berilib ketishi oqibatida farzandlarning tarbiyasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ota-ona bolada estetik tarbiya, go'zal manzaralardan zavq olish hissini shakllantirish uchun uni o'zi bilan birga tabiatdagi manzarali joylarga, muzeylarga olib borishi va shu bilan birga uning qalbida go'zallik latofatini singdirishi muhim.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mustahkam ma'naviy yetuk, o'zining fikrlarini ravon ayta oladigan, yuqori marralarga erishuvchan avlodni tarbiyalash uchun ota-ona, oila muhiti juda katta ahamiyat kasb etadi. Hech kimga sir emas, insonning qalbi va ongini egallash, ayniqsa, yoshlarning ma'naviy dunyosini zaharlashga qaratilgan turli xavf-xatarlar ham kuchayib borayotgan bugungi kunda o'zining kimligini, qanday bebaho meros vorislari ekanini teran anglab, ona yurtga muhabbat va sadoqat hissi bilan yashaydigan, imon-e'tiqodi mustahkam yosh avlodgina muqaddas zaminimizni yot va begona ta'sirlardan, balo-qazolardan saqlashga, Vatanimizni har tomonlama ravnaq toptirishga qodir bo'ladi. Farzandlarimizga shunday tarbiya beraylikki, ular o'z ota-bobolariga, milliy merosiga, urf-odatlariga, millati, diniga va an'nalariga hurmat hissi ila kamol topishsin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. U.Alimov ,” Oilada farzand tarbiyasi”, T.,” Movarounnahr”, 2017.
2. Sh.S.Aytdjanov, B.A. Mirsalixov,” Tarbiya – inson hayotida muhim omilidir”. Talaba – yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash muammolari (Respublika ilmiy – amaliy anjuman materiallari) 24-25 noyabr, 2018.
3. Berdiyeva, S. (2024). IMPROVING THE METHODOLOGY OF PREPARING STUDENTS FOR CREATIVE ACTIVITY BASED ON FOREIGN EXPERIENCES. Talqin va tadqiqotlar, (28).
4. Amrullayevich, M. S. (2024). BOSHLANG ‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA KONGRUENTLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 448-452.
5. Berdiyeva, S., & Erkinov, E. (2024). TALABALARNI XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA KREATIV FAOLIYATIGA TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH. " Science Shine" International scientific journal.
6. Berdiyeva, S., & Baxriddinov, M. (2024). BOSHLANG ‘ICH TA’LIMDA CHET TILI O ‘QITISHDA QO ‘LLANILADIGAN ZAMONAVIY INTERFAOL METODLAR. " Science Shine" International scientific journal.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14636291>

BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA ADABIY TAHLIL KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Aytbayev Dilshodxuja Temirbayevich

Ilmiy rahbar: Toshkent davlat pedagogika universiteti professori v.b.,
filologiya fanlari doktori (DSc).
dilshodxujaaytbayev77@gmail.com

Xalibekova Balnur Yerbol qizi

Toshkent davlat pedagogika universiteti Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti
404 q guruh talabasi.

ANNOTATSIYA

Berilgan maqolada o‘qish savodxonligi darslarida badiiy asar bilan tanishish, uni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish borasida adabiyotlat tahlili va mavzu bo‘yicha nazariy ma‘lumotlar haqida fikrlar yuritiladi.

Kalit so‘zlar: ko‘nikmalar, bolalar psixologiyasi, badiiy tahlil, kognitiv rivojlanish, madaniy savodxonlik, kommunikativ yondashuv, tilning muloqot vazifasi, matnni tahlil.

ТЕХНОЛОГИЯ ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ ЛИТЕРАТУРНОГО АНАЛИЗА В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье даются размышления о литературном анализе и теоретических сведениях по теме ознакомления с художественным произведением на уроках грамотности чтения, формирования навыков его анализа.

Ключевые слова: навыки, детская психология, художественный анализ, когнитивное развитие, культурная грамотность, коммуникативный подход, коммуникативная функция языка, анализ текста.

TECHNOLOGY FOR THE FORMATION OF LITERARY ANALYSIS SKILLS IN PRIMARY EDUCATION

ANNOTATION

In the given article, the lessons of Reading Literacy focus on literary analysis and theoretical information on the topic in relation to acquaintance with the work of art, the formation of skills for its analysis.

Keywords: *skills, child psychology, artistic analysis, cognitive development, cultural literacy, communicative approach, communication function of language, text analysis, fiction, fairy tale, speech.*

KIRISH. Zamon talabiga mos ta'lim jarayonini tashkillashtirish uchun pedagogikaning asosiy vazifalaridan biri nimani kimga va qay tarzda o'qitish masalasiga yechim izlash demakdir. Bu borada maktab o'quvchilarining bilimi va ko'nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o'qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, maktab ta'limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish maqsadida, shuningdek, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi ishlab chiqildi.

Ta'lim sohasida bo'layotgan tub o'zgarishlar, barcha yo'nalishlarda bo'lgani kabi boshlang'ich ta'limga ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Boshlang'ich ta'limni rivojlantirish, o'quvchilarni yetuk, bilimli qilib o'qitish va tarbiyalash, avvalam bor, shu soha o'qituvchilarini o'z sohalari bo'yicha kuchli qurollangan, yaxshi bilimga, tushuncha va metodikaga ega bo'lishlarini talab etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish ularning umumiy kognitiv rivojlanishi va madaniy savodxonligi uchun juda muhimdir. Badiiy tahlil tasviriy san'atni talqin qilish va tushunishni, tanqidiy fikrlashni, ijodkorlikni va estetik baholashni rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

NATIJARLAR. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti darsligida o'qituvchiga quyidagicha ta'rif keltirilgan: "O'qituvchi – guruhdagi o'quv tarbiya jarayonining tashkilotchisidir. O'qituvchi o'quvchilar uchun dars vaqti, darsdan

tashqari va tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish, o'tkazish, o'quvchilarga kerakli maslahatlar berishda bilimlar manbai bo'lishi lozim". Demak, o'qituvchi dars jarayonining asosiy yo'l boshchisi hisoblanar ekan¹.

Shu bilan birga maktab ta'lim tizimining ham o'z oldiga qo'ygan vazifalari mavjud. Bu vazifalar kichik maktab yoshidagi o'quvchilar umumiy rivojlanishining o'sganligi, psixologiya va xususiy metodika sohasidagi yutuqlar sinfda o'qish mazmuni va o'qitish metodlariga o'zgartirish kiritishni talab etmoqda. Shularga bog'liq holda badiiy asarni tahlil qilish metodikasi takomillashtirila borildi: takkroriy bayon qilish mashqlari kamaytirildi, ijodiy va o'qilgan matn yuzasidan o'z fikrini bayon qilib, mustaqil fikrlash ko'nikmasini o'stiradigan mashqlar ko'paytirildi, asar qismlari ustida emas, balki yaxlit asar ustida ishlanadigan bo'ldi, asar g'oyasi va obrazlarini tushuntirishda o'quvchilarning mustaqilligi, ijodkorligi ortdi.

Bolaga o'qish savodxonligini o'rgatishda kommunikativ yondashuv, tilning muloqot vazifasi birlamchi hisoblanib, integrativ, faoliyatga yo'naltirilgan, orginalilik, kashfiyotchilik, farqli va tanqidiy yondashuvlar e'tiborda bo'lishi ta'kidlanadi. Quyida badiiy asar boshlang'ich sinflarda metodik qoidalar asosida tahlil qilinishini ko'rib chiqamiz:

1. Asarning mazmunini tahlil qilish to'g'ri, tez, ifodali va ongli o'qish malakalarini shakllantirish bir jarayonda boradi (asarning mazmunini tushunishga doir topshiriq o'qish malakalarini takomillashtirish topshirig'i hamdir.)

2. Asarning mavzusi va g'oyaviy asoslarini, uning obrazlari, kompozitsiyasi va tasviriy vositalarini tushuntirish o'quvchilarning etuk shaxs sifatida kamol topishida alohida ahamiyatga ega, shuningdek, o'quvchining bog'lanishli nutqini o'sishi(lug'atining faollashishi va boyishi)ni ta'minlaydi.

3. O'quvchilarning hayotiy tajribasiga tayangan holda asarning mazmunini ongli idrok etishning asosi va uni tahlil qilishning zaruriy sharti hisoblanadi.

¹ Burxonov Sh.Sh. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy tahlil ko'nikmalarini shakllantirishning ilmiy-nazariy ahamiyati. Inter education & Global study. ISSN 2992-9024 (online) 2024, №5(1). 117-126 betlat.

4. Sinfda o‘qishga o‘quvchilarning umumiy bilish faoliyatini aktivlashtirish, atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishning yaxshi natija beruvchi vosita sifatida qaraladi.

Asarni tahlil qilishda hisobga olish zarur bo‘lgan muhim omillardan biri uning o‘quvchilarga ko‘rsatadigan hissiy ta‘siridir. O‘quvchilar asar muallifining asosiy fikrini tushunibgina qolmay, muallif hayajonlangan voqealardan o‘quvchi ham hayajonlansin. Matnni tahlil qilish o‘quvchida fikr qo‘zg‘atishi, hayotiy tajribasining asar muallifi qayd etgan dalillarga to‘g‘ri kelish – kelmasligini aniqlashi zarur. Tahlilning davomida asarning badiiy go‘zalligi, estetik qiymati ham alohida qayd qilib o‘tiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarining badiiy tahlil ko‘nikmalarini shakllantirishga oid tadqiqotchilardan S.Matchonov, K.Yo‘ldoshev, M.Mirqosimova, Sh.Sariyevlarning o‘z tadqiqotlarida fikr yuritgan. S.Matchonov va K.Qosimovalarning “Ona tili o‘qitish metodikasi”, M.Asqarova “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish va matnni tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish” deb nomlangan nomzodlik dissertatsiyasi, T.G‘afforovanning “Boshlang‘ich ta‘limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar” deb nomlangan ilmiy ishlarida badiiy tahlil ko‘nikmalarini shakllantirish haqida o‘z fikrlarini bayon qilgan. Shu bilan bir qatorda, Q.Husanboyeva, M.Hazratqulov, Sh. Jamoliddinova ham muallifligida 2020-yilda nashr qilingan nashr etilgan “Boshlang‘ich sinflarda adabiyot o‘qitish metodikasi” nomli darsligida ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida badiiy tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish mavzusiga doir bir qancha ilmiy farazlar, metodikalar berib o‘tilgan.

MUHOKAMA. O‘qish metodikasi adabiyotshunoslik, pedagogika, psixologiya singari fanlarning ishlab bergan nazariy qoidalariga asoslanadi. Sinfda o‘qishni to‘g‘ri uyushtirish uchun o‘qituvchi badiiy asarning o‘ziga xos xususiyatlarini, ta‘limning turli bosqichlarida o‘qish jarayonining psixologik asoslarini, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning matnni idrok etish va o‘zlashtirish xususiyatlarini ham hisobga olish zarur. O‘qish darslari o‘quvchilarda badiiy asarlarning bir-biridan farqini ajrata olish,

yoʻzuvchining real hayotiy voqealarni qanday badiiy obrazlar, badiiy vositalar orqali aks ettirgani va qanday obrazlar yaratganini aniqlay olish, mustaqil oʻqish va asarni tahlil qilish malakasi oʻquvchilar sinfdan-sinfga oʻtgan sari oʻstirib boriladi.

Oʻquvchilar badiiy asardagi adabiy maʼlumotlarni oʻzlashtirish orqali badiiy asarning gʻoyasi, mazmuni va ahamiyatini anglab ola boshlaydilar. Oʻquvchilar asardagi adabiy tushunchalarni oʻrganish natijasida badiiy adabiyot sanʼatning bir turi ekanligi, uning hayot bilan aloqadorligini bilib oladilar. Asarda adabiy tushunchalarni shakllantirish bilan birga oʻquvchilarning nutqini rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlangʻich sinflarda asarni badiiy tahlil qilish jarayonida quyidagi adabiy janr turlari: hikoya, ertak, doston, sheʼr, rivoyat, masal, maqol, topishmoq bilan birga oʻxshatish, sifatlash, jonlantirish, mubolagʻa bilan ham amaliy tarzda tanishtiriladi.

XULOSA. Boshlangʻich sinflarda adabiy tahlil koʻnikmalarini shakllantirishda ularning mustaqil oʻqish faoliyatini va fan boʻyicha sinfdan tashqari ishlarini tashkil etmasdan samarali amalga oshmaydi. Dars bilan aloqadorlik, uzviylik mazkur turdagi ishlarni tashkil etishning asosiy tamoyillaridan biridir. Biroq sinf va taʼlim muassasasidan tashqari ishlar dars bilan bogʻliqlikda amalga oshirilsa-da, ularning oʻziga xosliklari ham mavjudligi qayd etib oʻtish lozim. Birinchisi sinf va taʼlim muassasasidan tashqari faoliyatda oʻquvchilarning ixtiyoriy ishtirok etishidir. Ular oʻzlari uchun sevimli ishni mustaqil tanlashi, tashabbuskorlik, mustaqillik, faollikni namoyon etishi mumkin. Oʻqish savodxonligi darsi boʻyicha ushbu turdagi mashgʻulotlarning samaradorligi yuqoridir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | REFERENCES|

1. Mirziyoyev SH.M. (2017). *Milliy taraqqiyot yo‘limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz*. O‘zbekiston.
2. Asqarova M. (2020). “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish va matnni tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish”. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.
3. Ataboyev S. (2022). *Kreativ qobiliyatning asosiy mezonlari o‘quvchilar shaxsi rivojlantirish asosi*. Boshlang‘ich ta’limda innovatsiyalar.
4. Azimova I., Mavlonova K., Quronov A., Tursunov Sh. (2021). *1-2-sinf Ona tili va o‘qish savodxonligi darsligi*. Respublika ta’lim markazi.
5. Burxonov Sh.Sh. (2024). *Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining badiiy tahlil ko‘nikmalarini shakllantirishning ilmiy-nazariy ahamiyati*. Inter education & Global study. ISSN 2992-9024 (online) № 5 (1). 117-126.
6. Doniyorov A. (2022). *Boshlang‘ich sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darslarini yangicha yondashuv asosida tashkil etish usullari*. Oriental journal of social sciences. 8-b.
7. Ergasheva M., Ergasheva Z., Abdusattorova S. (2023). *Research and education scientific Journal*. 57-b.
8. Eshmirzayev Y. (2020). *Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini xalqaro baholash dasturlariga tayyorlashning ilmiy metodik jihatlari*. Инновации в начальном образовании. 32–136-b
9. www.tdpu.uz

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14636297>

MUSTAQILLIK YILLARIDA SURXONDARYO VILOYATINING IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHI

Amirqulov Sobir Abdusattor o'g'li

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti 2-bosqich magistranti

sobiramirqulov072c@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada Surxondaryo viloyatining mustaqillik yillarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati, viloyatdagi tumanlarning iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: *Surxondaryo, tumanlar, ijtimoiy-iqtisodiy, rivojlanish, ko'rsatkichlar.*

ANNONTATION

The article examines the state of socio-economic development of Surxondaryo Region during the years of independence, as well as indicators of economic growth in the regions of the region.

Keywords: *Surxondaryo, districts, socio-economic, development, indicators.*

KIRISH.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab mamlakatimizning boshqa viloyatlari kabi Surxondaryo viloyatida ham ishlab chiqarish tarmoqlari rivojlanib bordi. Shuningdek, ushbu yillarda viloyatda ijtimoiy sohada ham bir qator islohotlar amalga oshirildi. Respublikada iqtisodiy islohotlarning ilk bosqichida mulkchilikning hamma shakllari teng huquqli ekanligi qonuniy e'tirof etildi. Bu shakllar mustahkamlanishi uchun tegishli huquqiy – meyoriy va ularga rioya qilish

mexanizmlari yaratildi. Eng muhimi – ilgari davlatga qarashli bo‘lgan mulkni xususiylashtirishga, tadbirkorlikning rivojlanishiga putur yetkazayotgan yuridik va tashkiliy to‘siqlarning barchasi yo‘q qilindi. Ijtimoiy sohada esa uy-joylarni xususiylashtirish dastlabki qadam bo‘ldi. Natijada davlat uy-joy fondining 95 foizdan ortiqrog‘i fuqarolarning xususiy mulkiga aylandi. Bunda har 3 kvartiradan bittasi egalari imtiyozli shartlar bilan yoki tekin berildi. Urush va mehnat faxriylari, o‘qituvchilar, tibbiyot xodimlari va ilmiy xodimlar, ijodiy ziyolilar kvartiralarning egalari bo‘lishdi. Kam daromadli, mehnatga layoqatsiz va yolg‘iz keksa shaxslar, yosh oilalar hamda fuqarolarning ijtimoiy himoyalanmagan, kam ta‘minlangan toifalari, uy-joyga muhtojlar uchun aniq maqsadli kommunal uy-joy zaxiralari tashkil etildi. Uy-joy fondining xususiylashtirilishi bilan kommunal xizmat ko‘rsatish tizimida ham tub o‘zgarishlar yuz berdi. Bu tizim endi mahalliy boshqaruv tasarrufiga o‘tdi va yangi ishchi o‘rinlari paydo bo‘ldi. Mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlarining mas‘uliyati ham ortdi. Ijtimoiy ko‘maklashishning ta‘sirchan tizimini tashkil etish yo‘llarini izlash natijasida mahalla orqali moddiy, ma‘naviy muhtojlarga yordam berishning eng sodda, ammo samarali va ochiq vositasi yaratildi. Bu esa ruhini ko‘tardi, hokimiyatga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga ko‘maklashdi. Mahalla oqsoqollari, maslahatchilari va faollari mahallada yashovchi har bir kishining moddiy, ma‘naviy ahvolini, har bir oilaning ruhiyatini va daromad manbalarini yaxshi biladi. Shuning uchun ijtimoiy himoyaning yangi tizimini yaratish, kam daromadli oilalarga moddiy yordam odamlarga eng yaqin turuvchi boshqaruv bo‘g‘ini mahalla orqali amalga oshiriladigan bo‘ldi.

ASOSIY QISM.

O‘zbekistonning janubiy viloyatlaridan biri bo‘lmish Surxondaryo viloyati aholisi soni tez o‘sib borayotgan hudud hisoblanadi. Surxondaryoda yiliga 65–70 mingga oshishi kuzatilmoqda. Bu esa odamlarni ish bilan ta‘minlash, bog‘cha, maktab, shifoxonalar, uy-joy, gaz-suv, yo‘l masalalarini hal etishni, qishloqlarda fermer va dehqon xo‘jaliklarini, o‘rta va kichik tadbirkorlikni rivojlantirishni taqozo qiladi. Aholining tabiiy o‘sishi jadallik bilan davom etishi yangi ish joylarini yaratish

vazifasini ko'ndalang qo'yishi aniq. Qishloq joylarda hozirgi kunda mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta'minlash o'tkir muammo bo'lib qolmoqda. Shuning uchun mintaqada suv resurslari tanqisligi, ekin maydonlarini kengaytirish imkoniyatlari cheklanganligi ham bu borada bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi. 1989–1990-yillarda shaxsiy xo'jaliklarni rivojlantirish uchun respublika bo'yicha 165 ming gektar, 1991-yil 100 ming gektar aholiga tomorqa uchastkasi uchun ajratildi, uy-joy uchun berildi. Aholi o'sishi bo'yicha respublikada eng yuqori o'rinda bo'lgan birgina Surxondaryo viloyatida 1991–1999-yillarda 134 mingdan ortiq oilaga 36 ming gektardan ziyod yer tomorqa uchun ajratilgani surxondaryoliklarga munosib turmush sharoitini yaratish imkoniyatini berdi.

Sog'liqni saqlash tizimi muammolarining bir qismi xususiy mulkchilik shaklidagi korxonalar va muassasalar tomonidan hal etildi. Aynan shu sohada ham mulkchilikning xususiy shakli asta-sekin o'z o'rnini egallamoqda. Ayniqsa, sog'liqni saqlash tizimida bo'lajak onalar salomatligini muntazam nazorat qilib boradigan, sog'lom bolalar tug'ilishiga xizmat qiladigan keng tarmoqli "Oila markazlari"ning o'rni va ahamiyati katta bo'lgan. Agar 1991-yilda onalar o'limi ko'rsatkichi har 100 ming nafar ayolga nisbatan 65 tani tashkil etgan bo'lsa, 2006 yilga kelib bu raqam 24 taga tushgan. Go'daklar o'limi esa ilgari 1000 nafar chaqaloqqa 35 ta to'g'ri kelgan bo'lsa, 2006 yilda 14 taga tushgan. Shunisi e'tiborliki, O'zbekistonda chechak va ich terlatma, kuydirgi, o'lat va vabo kabi yuqumli kasalliklarga butunlay barham beriladi. O'rtacha umr ko'rish ham 67 yoshdan 72,5 yoshga uzaygan. Bularning barchasi odamlar salomatligini muhofaza qilish, turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar natijasi bo'ldi.

Ma'lumki, xizmat ko'rsatish sohasiga uy-joy kommunal xo'jaligi, maishiy xizmat ko'rsatish, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya, ijtimoiy ta'minot, madaniyat va san'at, yo'lovchi transporti, aloqa, chakana savdo, umumiy ovqatlanish kabi bir qator yo'nalishlar kiradi. Xizmat ko'rsatish sohasini aholi ehtiyojlarini qondirish jihatidan ikki turga ajratish mumkin: birinchisi, madaniy - maishiy xizmat sohasini (uy-joy kommunal xo'jaligi, maishiy xizmat, yo'lovchi transporti, noishlab

chiqarish aloqasi, chakana savdo, umumiy ovqatlanish) o'z ichiga olsa, ikkinchisi, ijtimoiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirishga mo'ljallangan (maorif, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya, ijtimoiy ta'minot, madaniyat va san'at) sohalarni qamrab oladi.

NATIJALAR.

Surxondaryo viloyatidagi iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlil qilinganda bir qator sohalar yuqori o'sish holati kuzatiladi. Jumladan, Surxondaryo viloyatidagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar 2010-2024-yilning 9 oyi tahlil qilinganda viloyatdagi yalpi hududiy mahsulot, sanoat mahsuloti, iste'mol tovarlari, qishloq, baliq va o'rmon xo'jaliklari, asosiy kapitalga investitsiyalar, qurilish ishlari, chakana savdo tovar aylanmasi, xizmatlar, tashqi savdo aylanmasi, eksport, importlarning tahlil qilingan yillar davomida o'sish holatlari, ayrim yillarda esa pasayganligini ko'rishimiz mumkin.

Surxondaryo viloyatining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari

	O'lov birligi	2010 y.	2011 y.	2012 y.	2013 y.	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y*	2024 y yanvar-sentabr*
Yalpi hududiy mahsulot	mlrd. so'm	3 394,7	5 217,1	6 436,4	7 436,4	9 213,2	11 114,4	12 179,6	16 354,4	21 229,4	25 473,1	27 571,6	33 591,1	39 201,8	46 839,7	38 732,2
	o'sish sur'ati, % da	110,9	110,9	108,5	107,8	107,8	107,3	105,6	103,4	106,0	104,5	102,7	109,3	104,2	104,8	106,2
Sanoat mahsuloti	mlrd. so'm	756,4	925,8	1 101,8	1 321,4	1 615,3	1 910,7	2 200,7	2 356,4	3 234,7	4 231,3	5 322,7	6 675,3	7 229,8	8 745,4	9 809,3
	o'sish sur'ati, % da	112,8	107,9	108,6	107,3	111,2	110,0	106,8	83,2	128,1	107,1	106,7	109,7	104,2	105,6	108,8
Iste'mol tovarlari	mlrd. so'm	290,7	363,6	445,5	537,8	687,7	942,8	985,2	1 068,4	1 218,0	1 601,3	2 032,4	2 640,6	2 632,0	2 692,5	x
	o'sish sur'ati, % da	107,9	103,1	105,8	104,1	114,0	116,0	119,4	97,0	101,5	108,9	111,7	112,6	100,7	101,4	x
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	mlrd. so'm	2 348,1	4 187,5	4 922,0	5 512,8	6 882,6	8 354,3	8 896,4	11 837,2	15 394,4	18 152,0	19 921,7	24 016,4	28 027,2	33 655,0	26 875,0
	o'sish sur'ati, % da	105,0	108,9	107,9	106,8	106,6	106,3	104,7	104,7	97,3	103,1	105,6	104,6	102,5	103,7	103,8
Asosiy kapitalga investitsiyalar	mlrd. so'm	655,3	802,9	980,3	1 371,0	1 509,1	1 843,6	2 142,4	3 551,0	7 240,6	11 835,1	9 923,0	12 037,8	11 507,3	17 956,0	13 928,7
	o'sish sur'ati, % da	95,8	104,8	107,9	123,2	96,5	110,3	107,6	148,4	164,2	144,0	76,3	109,7	87,1	145,4	107,1
Qurilish ishlari	mlrd. so'm	335,9	470,6	605,3	849,5	1 051,5	1 351,3	1 554,8	1 827,0	2 879,7	3 979,7	4 690,6	5 868,4	6 545,4	7 353,3	8 503,9
	o'sish sur'ati, % da	144,7	128,2	116,9	123,6	107,7	118,9	106,7	107,3	129,7	121,2	107,1	112,9	102,0	106,9	109,6
Chakana savdo tovar aylanmasi	mlrd. so'm	1 321,3	1 760,9	2 280,0	3 070,4	3 894,9	4 766,4	6 015,1	7 149,0	8 846,2	11 055,7	12 545,8	15 151,3	17 428,5	20 787,5	16 310,8
	o'sish sur'ati, % da	122,7	119,3	112,5	117,5	115,3	116,0	116,6	100,3	103,8	110,5	103,9	108,9	112,0	108,0	109,2
Xizmatlar, jami	mlrd. so'm	796,3	1 085,3	1 450,8	1 918,0	2 471,4	3 067,8	3 845,3	4 485,5	6 079,6	6 981,9	7 919,7	10 387,4	12 878,0	15 493,7	19 619,8
	o'sish sur'ati, % da	114,6	124,5	123,2	120,5	123,4	117,7	116,6	105,8	119,2	103,8	103,3	120,1	114,5	110,5	110,2
Tashqi savdo aylanmasi	mln. AQSh. Dollor	309,0	287,2	283,1	418,9	261,2	264,7	270,7	374,6	589,1	562,7	416,9	442,5	372,8	325,2	301,4
	o'sish sur'ati, % da	149,3	92,9	98,6	148,0	62,3	101,4	102,3	138,4	157,3	95,5	74,1	106,1	84,2	87,3	128,7
Eksport	mln. AQSh. Dollor	278,7	203,7	211,1	295,1	215,0	213,8	148,2	157,4	191,7	241,0	213,5	235,2	227,6	217,8	196,3
	o'sish sur'ati, % da	146,1	73,1	103,6	139,8	72,9	99,4	69,3	106,1	121,9	125,7	88,6	110,2	96,8	95,8	133,5
Import	mln. AQSh. Dollor	30,3	83,5	72,0	123,8	46,2	50,9	122,5	217,2	397,3	321,7	203,4	267,3	145,2	107,4	105,1
	o'sish sur'ati, % da	187,0	275,6	86,2	171,9	37,3	110,3	240,6	177,3	182,9	81,0	63,2	101,9	70,1	74,0	120,6
Saldo	mln. AQSh. Dollor	248,4	120,2	139,1	171,3	168,9	162,9	25,7	-59,9	-205,6	-80,7	10,1	-32,1	82,4	110,4	91,2
	o'sish sur'ati, % da	142,3	48,4	115,7	123,1	98,6	96,5	15,8	x	x	x	x	x	x	x	x

1-rasm. Surxondaryo viloyatining makroiqtisodiy ko'rsatkichlar.

Yuqoridagi jadvaldan ham ko'rishimiz mumkinki, viloyatda 2016-yilda yalpi hududiy mahsulot o'sish ko'rsatkichi 105,6 foizni tashkil etgan bo'lsa 2024-yilning yanvar-sentyabr holatida ushbu o'sish ko'rsatkichi 106,2 foizni tashkil etgan.

MUHOKAMA.

Viloyatda avtomobil va temir yo'llarning uzayishi hamda tarmoqlashuvi mintaqalar iqtisodiyoti hamda ijtimoiy sohasini rivojlanishiga katta imkoniyatlar

ochdi. Aholini ish bilan ta'minlash, chet davlatlarga chiqish mamlakatning tranzit rolini oshirdi.

Mahalliy sanoatda, aholiga xizmat ko'rsatish sohalarida xususiylashtirishning amalga oshirilishi sifatli sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishga, raqobat muhitini yaratishga, xizmat ko'rsatish turlarining ko'payishiga olib keldi. Mustaqillik yillarida respublikaning janubiy viloyatlaridan biri bo'lmish Surxondaryo viloyati mamlakatning asosiy yoqilg'i energetika bazasiga aylandi. Umuman, 1991–2007 yillarda bu viloyatning sanoat korxonalarida texnika va texnologiya yangiliklarini joriy etish keng ko'lamda olib borildi. Bu ishlarning barchasi mintaqa aholisining sanoat mahsulotlariga bo'lgan talabini to'laroq qondirish, mahsulot sifatini yaxshilashga erishish, og'ir qo'l mehnati sharoitida ishlayotgan sex va ustaxonalarni yangi zamonaviy texnika bilan jihozlash maqsadida amalga oshirildi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, mustaqil O'zbekistonning iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy, agrar sohasi va madaniy hayotida Surxondaryo viloyati katta rol o'ynaydi. Surxondaryo viloyati istiqloq yillarida respublikaning boshqa o'lkalari kabi ulkan ijobiy o'zgarishlar taraqqiyotni boshdan kechirmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Тилаев Э.Р. Ўзбекистон жанубий вилоятларида ижтимоий-иқтисодий ҳаётдаги ўзгаришлар: тажриба ва муаммолар (XX асрнинг 90-йиллари) // Ўзбекистонда урбанизацион жараёнлари: тарих ва ҳозирги замон. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. – Тошкент, 2007. – Б. 81-84.
2. Surxondaryo viloyat statistika boshqarmasining 2024-yil oktyabr oyidagi hisoboti.
3. Раҳимов Б.С. Ўзбекистоннинг мустақиллик йилларидаги ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаёти (Сурхондарё вилояти мисолида 1991–2005 йиллар). Тарих фан. ном. дисс. – Тошкент: ЎЗМУ, 2008. – 189.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14636304>

BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARINI XALQARO PIRLS NAZORATIGA TAYYORLASHNING METODIK ASOSLARI

Nisanbayeva Akmaral Kaldibayevna

Nizomiy nomidagi TDPU. professor

Bugungi globallashtirish hamda xalqaro integratsiyalashuv sharoitida o‘qitish tizimiga innovatsion texnologiyalarning keng ko‘lamda joriy qilinishi sababli o‘quvchilarning mantiqiy, tahliliy, tanqidiy, kreativ va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish orqali ijodiy qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish shaxsga yo‘naltirilgan rivojlantiruvchi ta‘limning muhim jihati sifatida o‘sib kelayotgan avlodni davr talablari miqyosiga ko‘tarishni dolzarb masalaga aylantirdi. Xususan, boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligini monitoring qilish yuzasidan o‘qish va matnni tushunish sifatini xalqaro o‘rganish PIRLS (The Progress in International Reading Literacy Study) talablarini amalga oshirishda o‘qish ta‘limi zimmasiga katta mas‘uliyat yuklaydi.

IEA – ta‘lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiya tomonidan tashkil etilgan PIRLS dasturi ta‘lim tizimiga ega bo‘lgan mamlakatlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish fanidan o‘zlashtirish darajasini aniqlash va tadqiqotga jalb qilingan mamlakatlar tizimining e‘tiborga molik jihatlari o‘rganishga qaratilgan.

Garchi jahon standarti bo‘yicha boshlang‘ich maktablarda o‘quvchilarning o‘qish va matnni tushunish sifatini monitoring qilishga jalb etilgan mamlakatlarning o‘quvchilari yoshida sezilarli darajada farq bo‘lsa-da (Angliya, Yangi Zelandiya, Finlandiyada bolalar besh yoshdan, ko‘pgina mamlakatlarda olti-yetti yoshdan o‘qiydilar) talab hammaga bir xil qo‘yiladi[2;8].

PIRLS, TEMIS, FIMSS singari xalqaro dasturlar talablari asosida o'qitish sifatini oshirishdan ko'zlangan asosiy maqsad mamlakatimiz boshlang'ich ta'limi nufuzini oshirish, o'quvchilarimizning jahon reytingini oshirishni nazarda tutadi. Masalaga bu kabi yondashuv mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim tizimida o'qish savodxonligi, tinglab tushunish, tushunib ongli o'qish, ravon so'zlash, savodli yozish kabi lingvistik ko'nikmalari sifatini ta'minlashga olib keladi.

Boshlang'ich ta'limning 3-4- sinflarida o'quvchilar umumiy rivojlanishida muhim davr hisoblanadi. Mazkur davrda o'quvchilar o'qishni shu darajada o'zlashtirishlariga erishish zarurki, natijada egallangan bilimlar ularning yuqori sinflarda o'qitiladigan fan asoslaridan zarur bilim va ko'nikmalarni muvaffaqiyatli egallashlarini ta'minlasga xizmat qilishi kerak bo'ladi.

Sanab o'tilgan xalqaro baholash dasturlari o'quvchilarning aynan matnda berilgan mazmunni qayta hikoyalashidan ko'ra unda aytilmoqchi bo'lgan fikrlarni anglab yetishlarini nazarda tutadi. Mamlakatimiz o'quvchilarining ilk ishtiroki bu sohadagi tajribalarimizning yetarli emasligini ko'rsatib berdi. Shu bois, boshlang'ich sinf o'quvchilarini tayyorlashda, ularning malakalarini oshirishda mazkur sohaga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarning o'qish savodxonligi yuzasidan o'qish darajasini aniqlash, ta'lim jarayonida beriladigan ma'lumotlarni o'zlashtirish va ulardan amalda foydalanish bilan bog'liq qayta hikoyalash, kommunikativ kompetentligini aniqlash va uning sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratishadi. Bunda ular asosiy e'tiborini 4ta mezon bo'yicha baholashga qaratishlari maqsadga muvofiq:

- matnda berilgan ma'lumotni aniqlash;
- xulosalarni shakllantirish (adabiy tahlil);
- ma'lumotlarni talqin qilish va umumlashtirish (adabiy tahlil);
- matn mazmunini, til xususiyatlari va tuzilishini tahlil qilish (adabiy tahlil).

O'qish kitobidan o'rin egallagan turli janrlardagi badiiy asarlar tahlili boshlang'ich sinf o'quvchilarning asar mazmunini tushunish, asardagi voqea-hodisalarni qalbdan his qilish, asarni idrok etish, qahramonlarning xatti-harakatlarini baholay bilish, ulardan

mustaqil xulosaga kela olish va shunday voqealarga duch kelganda o'zini boshqara olishga tayyorlaydi.

“Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi” fani talabalarni – bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchlarini metodik jihatdan tayyorlaydi, shuning uchun bu masalani bu fanga yuklab bo‘lmaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qish savodxonligi yuzasidan PIRLS nazoratiga tayyorlashda H.Bakievaning “4-sinf o‘qish darslarida adabiy tahlil ko‘nikmalarini shakllantirish” nomli o‘quv qo‘llanmasi xalqaro baholash dasturlari talablari darajasida tahlil ko‘nikmalarini tarbiyalashga qaratilgan. Mazkur qo‘llanma kam sonli o‘quv adabiyotlaridan biri sifatida qaraladi va bu borada keng ko‘lamdagi ishlarni amalga oshirish talab etiladi. Bu kabi qo‘llanmalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarimizning xalqaro baholash dasturlarida samarali ishtirok etish muammosi va uning yechimi bilan bog‘liq masalalarni hal qilishga yo‘naltirilgan[4;56].

PIRLS(Progress in International Reading Literacy Study) xalqaro baholash dasturi turli ta‘lim tizimiga ega mamlakatlarda o‘qish savodxonligi sifati va tendentsiyalarini davriy monitoring o‘rganish hisoblanadi. PIRLS xalqaro talablari o‘qish va tahlil uchun tavsiya etilgan matnning adabiy-badiiy, ijtimoiy, ma‘naviy, ma‘rifiy saviyasiga katta talablar qo‘yadi.

E’tirof etilayotgan dastur o‘quvchilardan o‘qish jarayonida sinf va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘qish ko‘nikmalarining ikki muhim jihatini egallashga e’tibor qaratiladi:

O‘qish savodxonligi asosan adabiy o‘qish tajribasini egallashga yo‘naltirilganligi.

O‘qish savodxonligi axborotni o‘zlashtirish va undan foydalanishga qaratilganligi.

Boshlang‘ich sinflarda badiiy va axborot matnlarini o‘qishda o‘qish qobiliyatining to‘rtta guruhi o‘ta muhim:

Matndan aniq talabqilingan ma‘lumotni topish.

Matn mazmunidan kelib chiqqan holda zarur xulosalarni shakllantirish.

Matnda mavjud axborotni talqin qilish va umumlashtirish.

Matnning mazmuni, lingvistik xususiyatlari va tuzilishini tahlil qilish va baholash.

O'quvchilar matnni o'qib, savollarga javob berishlari kerak. Ba'zi vazifalar taklif qilingan variantlardan to'g'ri javobni tanlashni talab qiladi, boshqalari esa erkin tuzilgan javoblarni talab qiladi. O'quvchilar mazkur muammoni bartaraf etishlarida o'qituvchining yordamiga tayanib ish ko'rishadi[3;177].

Ma'lumki, badiiy asarlarni o'qish bilan bog'liq holda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tizimida o'quvchilarning badiiy-estetik tafakkurini shakllantirish, o'zligini anglashga yo'naltirish, Vatanga muhabbat tuyg'ularini kamol toptirishda boshqa o'quv predmetlari kabi bolalar adabiyoti namunalarini san'at asari sifatida o'rganish vazifalari yuklatilgan o'qish ta'limi alohida o'rin tutadi.

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'qish metodikasi yuzasidan aniq dalillangan, ilmiy asoslangan ko'rsatmalarga muhtoj. Metodika bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini adabiy ta'lim mazmuni va uni o'qitishga mustaqil, ongli yondasha oladigan, o'zgalarning tajribasini nafaqat o'rganish, balki ular faoliyatining natijalarini ongli ravishda tahlil qilib, to'g'ri xulosa chiqara biladigan bo'lishlarini ta'minlashga qaratilishi kerak[1;48].

Boshlang'ich sinflarda o'qish metodikasining asosi sifatida quyidagi didaktik qonuniyatlarni keltirish mumkin:

1. Ta'lim o'quvchilarning anglashlariga har tomonlama ta'sir etuvchi xarakterda bo'lishi.
2. O'quvchilar oldilariga qo'yilgan masalani aniq tushunishlari.
3. O'qituvchi yangi murakkab ta'limiy muammolarni tanish hodisalar holatida ko'rsata olish mahoratiga ega bo'lishi. Mamlakatimizning ushbu tadqiqotda ishtirok etishidan maqsad bir qator savollarga javob olishdir:

Boshqa mamlakatlardagi tengdoshlariga nisbatan o'zbek tilidagi boshlang'ich maktab bitiruvchilari qanchalik yaxshi o'qishadi?

O'zbek maktab o'quvchilarining o'qish savodxonligi qay darajada?

Oldingi o'quv davrlari bilan solishtirganda o'zgarishlar bo'lganmi?

To'rtinchi sinf o'quvchilari o'qishni yaxshi ko'radimi?

Oila savodxonlikni rivojlantirishga qanday hissa qo'shadi?

Bugungi kunda mamlakatimiz maktablarida o'qishga o'rgatish jarayoni qanday tashkil etilgan?

